



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

**AMALIY FANLARNI O‘QITISHGA
ZAMONAVIY YONDASHUV – TA’LIM-
TARBIYA
SAMARADORLIGI GAROVI**

**Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari
uchun metodik qo‘llanma**

Toshkent – 2017

Munajat Abralova, Ozodbek Saipov. Amaliy fanlarni o'qitishga zamonaviy yondashuv – ta'lim-tarbiya samaradorligi garovi. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: _____ nashriyoti, 2017.-0000 b.

Metodik qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprelda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Musiqqa madaniyati", "Tasviriy san'at", "Jismoniy tarbiya" fanlari o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, qo'llanmada o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish yo'llari, fanni o'qitishda pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiiq etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol metodlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Metodik qo'llanma yuzasidan fikr-mulohazalaringizni **1mehnatmetodist@inbox.uz** elektron pochta manzilimizga yuborishingiz mumkin.

Mas'ul muharrir

**Respublika ta'lim markazi direktori, pedagogika fanlari nomzodi
I.I.Zokirov**

Taqrizchilar:

D. Karimova

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

Z. Ishmurodova

Toshkent shahar Sig`ali tumanidagi 300-maktab
musiqqa fani o'qituvchisi

Q.Shaislamova

Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi
225-maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

F.Nasrullaeva

Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 244-maktab
mehnat ta'limi fani o'qituvchisi

S. Sobirov

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 298-maktab
chizmachilik fani o'qituvchisi

Ushbu metodik qo‘llanma Respublika ta‘lim markazi qoshidagi “Mehnat ta‘limi va kasbga yo‘naltirish” Ilmiy-metodik kengashining 2017 yil _____dagi ____-sonli va Respublika ta‘lim markazi Ilmiy kengashining 2017 yil _____dagi ____-sonli yig‘ilishi qarorlariga asosan nashrga tavsiya etilgan.

S O‘ Z B O S H I

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakat strategiyasi dasturining ishlab chiqilganligi ham muhim qadam bo‘ldi. Respublikamizni yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi borasida Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev imzolagan Farmon bu borada amalga oshiriladigan ishlarni yangi sifat darajasiga ko‘tarish uchun muhim omil bo‘ldi. “Yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish va malakali mutaxassislar tayyorlash” vazifalarini bajarish xalqimizning ma’naviy qudrati va hayot sifatini oshirishga xizmat qilishini idrok qilish qiyin emas. Jumladan, Harakatlar strategiyasining 5 ustuvor yo‘nalishida alohida o‘ringa ega bo‘lgan to‘rtinchi-ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida fan va ta’lim, madaniyat va san’atni yanada rivojlantirish bo‘yicha qator masalalar ko‘rsatib berilgan. Erishilayotgan yutuqlarni yanada mukammallashtirish, muntazamlikka erishish uchun umumta’lim maktablaridagi “amaliy fanlarga yetarlicha e’tibor qaratish bugungi kun talabi deb qarash lozim. o‘quvchilar amaliy fanlar bo‘yicha o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda faol ishtirok etib, unda ifodalangan mazmuni chuqur anglash, tinglovchida ma’lum ijobiy tasavvurlar shakllanishiga erishish xususiyatlari, aynan “Musiqa madaniyati” darslarida amalga oshiriladi.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va bunda tashhisli ta’limga asoslanish, mazkur jarayonni doimo boyitish va yangilab turish, shuningdek, bu masalada turli- tumanlikka erishish, ta’lim jarayonini to‘xtovsiz tahlil qilib turish hamda uni mavjud pedagogik jarayonlar bilan solishtirish, ta’lim oluvchilarning faoliyatlarini doimiy nazorat qilish va baholash.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlaridan biri bu ta’lim oluvchilarni o‘qitish emas, ularni mustaqil bilim va malakalarni egallashga yo‘naltirishdir. Ta’lim jarayonida zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalanish degani bu har bir darsda mavjud texnologiyalarni qo‘llash shart degan so‘z emas. U dars mavzusi, uning mazmuni, darsdagi sharoitlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tatbiq qilinishi mumkin.

Dars turlarining o‘rinlarini o‘qituvchi o‘zining imkon darajalariga ko‘ra qayta ishlab chiqishi, shuningdek, har bir mavzuga ajratilgan soatlar hajmini ham mustaqil ravishda o‘zgartirishi mumkin. Bu ishlarni o‘qituvchi topshiriqlar mazmunining o‘quvchilar tomonidan qanday darajada o‘zlashtirilishini hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Mazkur metodik qo‘llanma «O‘quvchi va o‘qituvchi o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi» tamoyiliga asoslangan holda yaratilgan bo‘lib, amaliy fanlar samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarga amaliy yordam beradi, degan umiddamiz.

“MUSIQA MADANIYATI” FANINI O‘QITISHGA DOIR UMUMIY TAVSIYALAR

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy-pedagogik asar deb hisoblash mumkin, chunki uni o‘qituvchi o‘z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy-pedagogik g‘oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o‘quvchilarda musiqaga qiziqishni o‘stirish, ularga musiqa san‘ati va madaniyatining ma‘naviy mavzusini singdirish, zamonaviy musiqali-ijodiy faoliyatini anglash — bular hammasi o‘qituvchining ijodiy sohasiga kiradi.

O‘qituvchi musiqa darsi rejasini tuzganda maqsad, vazifasini, mavzusini, turini va o‘qitish shakllarini, musiqa faoliyatlarini va ularni o‘quvchilarga singdirish uchun kerakli metodlar, texnologiyalar va usullarni aniqlab, so‘ng darsning senariysini tuzadi. Dars bir umumiy sxemada tuziladi. Har bir faoliyat turlari: musiqa tinglash, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar, musiqa cholg‘u asbobiga jo‘r bo‘lish, o‘yinlar — bir-biri bilan bog‘lanib, uzviylashtirilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilarni darsda faol qatnashtirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod usullari va yo‘llari ishlatiladi.

Ma‘lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta‘limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta‘lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va o‘qituvchilarning hamkorligi, o‘zaro muloqoti, bir-biriga ko‘rsatadigan ta‘siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. O‘quvchining faol, samarali faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta‘limning pedagogik texnologiyasi ta‘lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o‘quv materialini o‘zlashtirishga sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg‘ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish nazarda tutilganligiga bog‘liqdir.

O‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan usullar juda ko‘p. Bu usullar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko‘pchilikni o‘qitishga yoki individual ta‘lim berishga mo‘ljallangan boladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiatan o‘yinqaroq bo‘lishini hisobga olgan holda, ularni darsga ko‘proq qiziqtirish uchun «o‘yin usulidagi darslardan» foydalanish mumkin.

Darsning har bir elementini amalga oshirishda uning mohiyatini o‘quvchilar bilimi va hayotiy tajribalariga asoslanib tushuntirish lozim.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini yangi pedagogik texnologiyalar va an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirgan holda tatbiq etish yuqori samara beradi. Ayniqsa, musiqani mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli mavzularni yoritishda kompyuter kuchli o'quv vositasi hisoblanadi. Musiqa madaniyati fani o'qituvchisining vazifasi o'quvchining musiqa savodini o'rganishi uchun shart-sharoit yaratish, o'quvchilarga zarur yordamni tez hamda qulay usul bilan yetkazishdan iborat. Buning uchun dars jarayonida mavzu mazmunidan kelib chiqib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur bo'ladi. Shundagina o'quvchining shaxsiy layoqati, bilim saviyasiga mos ravishda mashq va topshiriqlar berish orqali musiqa o'rganish jarayonini yuksak saviyada tashkil etish mumkin.

Darslarni kompyuter vositasida tashkil etish o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiya elementlarini shakllantirish bilan birga o'qituvchilarning mahoratini ham oshirib borishga xizmat qiladi.

Darsda slayd va multimedia vositalaridan foydalanishda quyidagi tamoyil va qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- slaydni tayyorlashdan ko'zlangan maqsadni aniq belgilash;
- slaydlar mavzuning mazmun-mohiyatiga mos kelishi kerak;
- slaydda mavzuning nomi, rejasi ko'rsatilishi kerak;
- o'quvchilarni qiziqtiradigan yangi ma'lumotlarni berish;

- qoida, ta'rif va izohlarni lo'nda, aniq va mazmunli bo'lishini ta'minlash;
rasm, animatsiyalar tanlashda o'quvchining yoshii, psixologiyasini hisobga olish.

Bugungi kunda kompyuterda taqdimot slaydlarini yaralish va namoyish etish eng samarali va qulay zamonaviy vositaga aylandi. Musiqa ta'limida slaydlardan foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini o'stiradi, darsni qiziqarli, samarali, zamon talablariga mos bo'lishini ta'minlaydi.

INTERFAOL METOD VA USULLAR

Hozirgi kunda amaliyotda pedagogik texnologiyani qo'llash dars jarayonini demokratlashtirish bilan birga o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini hamda uning ijodkorligini rivojlantiradi. O'quvchi va o'qituvchining doimiy do'stona munosabatda bolishi dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim doirasini o'stirishga asosiy omil bo'lmoqda.

Pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni aniqlovchi tizimli kategoriyadir.

«Texnologiya» yunoncha «*texnos*» — mahorat, san'at va «*logos*» — fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan.

Interfaol — o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr-

mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish demakdir. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu (axborot)ni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi. O'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning juda ko'p usullari mavjud. Bu usullardan o'quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talab va e'tibor alohida o'rin tutadi. Chunki an'anaviy ta'limda o'quvchilarga faqat tayyor holda bilimlar berilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, bilimlarini mustaqil qidirib topish, tahlil qilish va shu asosda xulosa chiqarishga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatiladi. O'qituvchi esa bu jarayonda ularni yo'naltirib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qulay ta'lim-tarbiyaviy sharoit yaratadi. Darslarni zamon talablariga mos, samarali tashkil etish darslik hamda ular asosida yaratilgan turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar hamda dars ishlanmalarining sifatiga ham bog'liq, albatta. Bugungi kunda maktab darsliklariga qo'yilgan talab juda yuqori. Shuning uchun ular mamlakatimizda turli darslik va o'quv adabiyotlari yaratishning ko'p yillik tajribasi hamda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarni qiyosan o'rganish, ularning eng maqbullaridan foydalanish asosida yaratilmoqda. Natijada darslik va o'quv qo'llanmalar bolalarning to'laqonli va sifatli ta'lim olishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun ham darsliklarga hamohang, o'zida interfaol metod va innovatsion axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar hamda namunaviy dars ishlanmalarini aks ettirgan metodik qo'llanmalar yaratilmoqda. Bunday metodik qo'llanmalar o'qituvchilarga dars jarayonini to'g'ri tashkil etishga, har bir darsga mos interfaol metodlar, va multimedialardan foydalanishga juda katta yordam beradi.

Interfaol ta'lim, o'z xususiyatlariga ko'ra, didaktik o'yinlar orqali, kreativ ijodkorlik asosida, axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Qolaversa, bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o'quvchilarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi.

Musiqa ta'limida interfaol metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalariga mos didaktik o'yinlar, evristik suhbatlar, qiziqarli multimedialardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Qolaversa, yuqori sifat va samaradorlikka ega dars jarayonini tashkil etish o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ijodkorligi va tashabbuskorligiga ham bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi faqat o'qitibgina qolmay, o'quvchida mustaqil o'z uistida ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishi, ularning dars

mavzusi va mazmunini o'rganishda faol ishtirokchiga aylanishini ta'minlashi lozim.

Musiqqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash va ularni barkamol insonlar qilib shakllantirishga xizmat qiladi.

Musiqqa asari insonning ichki ruhiy kechinmalari, holati, xayollari, kayfiyati va tabiat go'zalliklarini turli xil tovushlar vositasida obrazli ifodalaydi. «So'z tugagan joyda musiqqa boshlanadi», ya'ni so'z orqali ifodalash qiyin bo'lgan murakkab tuyg'ularni ifodalashga musiqqa yordamga keladi, degan edi Viktor Gyugo.

O'qituvchi musiqaning ta'sirchan tarbiyaviy kuchidan foydalanib O'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va badiiy madaniyatini o'stirishi maqsadida turli mazmun, metod, shakl va vositalar orqali belgilagan maqsadiga erishadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan bin, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazilishi mumkin bo'lgan dars jarayoni metodikasini har bir o'qituvchi o'z fani (o'quv predmeti) sharoitidan hamda o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'zgartirishi yoki shular asosida o'qitish jarayonida o'zining mualliflik texnologiyalarini yaratishi mumkin.

Tavsiya etilgan qator yangi pedtexnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi dastlab bu texnologiyalarning maqsadi, mazmuni, qo'llashning yo'llari, sharoitlari bilan atroflicha tanishib chiqishi, o'z fani xususiyatlaridan kelib chiqib, to'liq, qisman yoki faqat prinsiplaridan foydalanishni o'ylab rejalashtirishi zarur. Aks holda, dars samaradorligini oshirishda deyarli biror natijaga erisha olmasligi mumkin.

Har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Musiqqa madaniyati va san'ati darslarining asosiy xususiyatlari quyidagi faoliyatlar bilan bog'liq:

- vokal-xor mashqlari kuylash orqali qo'shiq aytish malakalarini egallash;
- qo'shiqlar o'rganish va kuylash;
- musiqqa asarini tinglash va idrok etish;
- musiqqa savodi (nota yozuvini o'qib, oddiy kuy-ohanglarni aniqlash);
- musiqqa asari tavsifiga mos raqs va ritmik harakatlar bajarish;
- musiqqa, uning yaratuvchilari, ijrochilari va tinglovchilari haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish.

Dars jarayonining tarkibiy qismlari bo'lgan bu musiqiy faoliyatlarning aksariyati musiqqa asari bilan tanishishi (tinglash) va ularning arnaliy ijrosi negizida amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, musiqa tinglash, mashq va qo'shiqlar kuylash, musiqa ohangi tavsifiga mos raqs va ritmik harakatlar bajarish sinfdagi barcha o'quvchilar ishlilikida bir vaqtda amalga oshiriladi.

Musiqa asari yangrab turganda hammaning diqqati unda bo'lib, uni emotsional his qilish, idrok etish va undan estetik zavqlanish bilan band bo'ladi. Binobarin, bu jarayonlarda guruhlarga bo'linib ishlashning imkoni o'z bo'ladi.

Musiqa savodi, ya'ni nota yozuvi elementlari, yakkanavozlik, yakkaxonlik, jo'rnavozlik, cholg'u ansambli kabi mavzularni tushuntirishda guruhlarga bo'linib, «Bumerang» texnologiyasi, «Blis-o'yin», «Tarmoqlar» metodi (Klaster), «Skarabey» texnologiyasi («Aqliy hujum») va boshqa interfaol metodlarning prinsiplaridan foydalanish mumkin.

O'qituvchi darsning maqsadi va turli musiqiy faoliyatlar bo'yicha rejalashtirilgan vazifalarni bajarish uchun qulay (optimal) bo'lgan yo'l, usul va vositalari izlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy va an'anaviy darslar tashkil qilish jarayonida to'plangan tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida ulardan

O'quvchilarning musiqiy xotirasini mustahkamlash maqsadida ular tinglagan asarlarga oid rasmlarni ko'rsatishi va rasmga muvofiq (tavsifiga mos) qaysi musiqa asari tinglanganligini so'rash mumkin. O'quvchi tinglangan musiqa asarlarini eslash va ulardan rasm mazmuniga mosini tanlab aytishga harakat qiladi. Bu jarayonda o'quvchi mantiqiy fikrlash, taqqoslash, olgan musiqiy axborotlari (musiqiy taassurotlari)ni xayolida idroklash, shuniugdek, tasviriy san'at asari bilan tanishish kabi foydali amaliyotlarni bajaradi.

«**Eslab qol!**» o'yini. O'quvchilarga kichik bir qo'shiq eshittiriladi. O'quvchilar qo'shiqdagi naqorat so'zni eslab qoladilar, so'ngra ushbu naqorat so'zi yordamida tinglangan qo'shiqni takrorlaydilar. Kimning qo'shig'i to'liq va to'g'ri tuzilsa, o'sha yuqori bahoga sazovor bo'ladi. Bu o'yin o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«**Bumerang**» texnologiyasi o'quvchilarning tanqidiy fikrlashlariga imkoniyat yaratadi: g'oyalarni, fikrlarni, hamda dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoalar bilan ishlash;
- muomalalik;
- xushfe'llik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashisli;

O'qituvchi darsning maqsadidan kelib chiqib asarlar sonini qisqartirishi, yoki faqat tinglangan kuylar, yoki faqat o'rganilgan qo'shiqlar kuylaridan parchalar

tanlashi mumkin.

Bu metodning afzalligi shundaki, u sinf konserti va musiqiy viktorinaga o'xshab, o'quvchilarning xotiralarini mustahkamlaydi, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Xususan, chegaralangan vaqt ichida to'g'ri qaror qabul qilishga undaydi.

“VIDEOTOPISHMOQ” STRATEGIYASI

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompiyutr, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitafon) yordamida ta'lim jarayonini tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida o'qitishda turli axborot vositalaridan o'rinni, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turibdi.

Strategiyadan foydalanishda quyidagi harakat amalga oshiriladi.

O'quvchilarga o'rgatilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavhalar namoyish qilinadi.

O'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi.

O'quvchi videolavhalarda aks ettirilgan jarayon, hodisa yoki voqeliklarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi.

O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi.

Videolavhalar namoyish qilingach, o'quvchilardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi badiiy asar qahramoni yoki tarixi shaxs ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi.

O'tilgan qo'shiqlarni takrorlash.

Bitta o'quvchi sinfdan tashqariga chiqib ketadi. Qolganlar kelishib biror qo'shiqni tanlaydilar so'ng hammalari o'zlariga bittadan so'zni tanlab oladilar. Hamma tayyor bo'lganidan so'ng tashqaridagi o'quvchi taklif qilinadi. U kirgach, hamma baravariga qo'shiqning so'zini ayta boshlaydi. O'quvchi ushbu qo'shiqning nomini topishi kerak. O'quvchi qo'shiq nomini topgandan so'ng qarsaklar bilan olqishlanadi. O'yin tugagandan so'ng, bolalarning taassuroti so'raladi.

«Hamkorlik» usuli

Qo'shiq kuylash uchun

Sinf uch guruhga bo'linadi. o'tilgan qo'shiq matni bo'laklarga bo'lingan holda o'qituvchi tomonidan konvertga solib beriladi. O'quvchilar konvertdagi qo'shiq matnini yig'adilar. So'ng o'quvchilar qo'shiq matnini kuylab beradilar. Qo'shiqni yaxshi kuylab bergan guruh rag'batlantiriladi.

Musiqqa savodi uchun

«Jumboq ko'chasi» usuli

Bu yerda guruhlar e'tiboriga musiqiy rebus yechimini topish vazifasi yuklatiladi. Bunda musiqqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqqa savodi kabi faoliyat turlari bo'yicha savol va topshiriqlar beriladi.

«Tarozi» usuli

Mazkur usulda o'tgan mavzularni ko'proq dalillar keltirishi asosida qisqa va lo'nda ifodalab berishi, boshqa guruh ishtirokchilarini ishontirgan guruh javobi tarozida vazmin kelib g'olib chiqadi.

O'quvchilarga uch xil kartochka tarqatiladi. Bu kartochkalarda o'quvchilar bilgan qo'shiqlari nomi yozilgan bo'ladi. Har bir qo'shiqdan parcha tinglab, ushbu sur'atga mos kuylarni yoki qo'shiqlarni eslab, uning ta'rifi va mazmuni ochib beriladi. Qaysi guruh tez va chaqqon dalillar keltirsa, davomini kuylab bersa, shu guruh g'olib hisoblanadi.

MUSIQA MADANIYATI FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 288-maktab musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi Gulchehra Hoshimova tomonidan yaratilgan ayrim dars ishlanmalaridan namunalarni tavsiya etamiz.

4- sinf

MAVZU: “Navro`z - xalq bayrami”

Texnologik xarita

Dars mavzusi	“Navro`z - xalq bayrami”
Darsning maqsadi	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Ta`limiy maqsad: O`zbek xalq milliy musiqa san`ati bilan tanishish. ➤ Tarbiyaviy maqsad: Milliy xalq musiqasini tahlil va taqqoslab o`rganish. ➤ Rivojlantiruvchi maqsad: O`quvchilarda ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o`stirish, fikr doirasini kengaytirish. ➤ Tayanch kompetensiya elementlaridan kommunikativ, o`zni-o`zi rivojlantirish, Milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik va fanga oid kompetensiya elementlari rivojlanadi.
O`quv jarayoning mazmuni	O`quvchilarda musiqaga bo`lgan qiziqishini orttirish, milliy musiqa madaniyatini bilish
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub : yangi mavzuni tahlil qilish Shakl: o`yin, baxs, suhbat, munozara Vosita: proyektor, nootbook, fleshka, prezintatsiya, tarqatma materiallar, 4 sinf uchun darslik, dars ishlanmasi Usul: interfaol usullar, case study, sekveyn, ro`lli o`yinlar,klaster, venna diagramma, Nazorat: og`zaki savol-javoblar, kuzatish Baholash: 5 balli tizim asosida baholash</p>
Kutilayotgan natija	<p>O`qituvchi: O`quvchilarda musiqa faniga nisbatan qiziqishni oshirish, belgillangan vaqt ichida mavzuni to`liq ochib berish mavzuni yangi ped texnologiyalardan foydalanib ochib berish, O`quvchilar faolligini oshirish. Dars jarayonida ko`proq o`quvchini baholashga erishish. Savol-javoblarga qatnashib, mustaqil fikrlashga o`rgatish.</p> <p>O`quvchi: Xalqa i jodi haqida ma`lumotga ega bo`ladi, nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi.</p> <p>Fanga oid kompetensiyalardan tinglash, kuylash va musiqa savodi faoliyatlarida o`quvchilarning nazariy va amaliy bilim, ko`nikma va malakalari shakllanadi.</p>

Kelajakdagi rejalari	<p>O`qituvchi: O`z ustida ishlash, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish</p> <p>O`quvchi: Mustaqil fikrlashni o`rganadi, fikrini ravon bayon qila oladi. Fikri va gurux fikrini tahlil qilib, mustaqil fikrlash malakasini hosil qiladi</p>
-----------------------------	--

Darsning blok chizmasi

1	<p>Tashkiliy qism: Jarchilar chorlovi Musiqqa ostida kirish. Salomlashuv Davomatni aniqlash - navbatchilar hisoboti Darsga tayyorgarlikni nazorat qilish</p>	3
2	<p>O`tilgan mavzuni mustahkamlash: Guruxlarga bo`linib, Case study uslubidan foydalanib, xalq musiqasi, janrlar, bayram va marosimlar haqida takrorlash</p>	7
3	<p>Yangi mavzu: Sekveyn usuli yordamida Navro`z haqida ma`lumotlar berish., milliy aytimlarga namunalar ijro etish.</p>	10
5	<p>Ijodiy faoliyat: mavzuga oid namunalar ijrosi, sahna ko`rinishlari</p>	5
6	<p>Jamoa bo`lib kuylash: "Navro`z kelibon" qo`shihg`ini o`rganish</p>	5
7	<p>Baholash: faol o`quvchilarni rag`batlantirish. 5 balli tizim asosida baholash</p>	3
8	<p>Darsni yakunlash: uyga vazifa mavzu yuzasida qo`shimcha ma`lumotlar yig`ib konspekt yozish</p>	2

Darsning borishi

Jarchilar qo`shig`i (Karnay, surnay va nog`ora sadolari ostida jarchilar kirishi)

E-he-hey! Bor- ho, Kel-ho,
Hamalim, ha, Amalim, ha,
Sayil beyda, Tezda kel.
O`ynagani kel. Kulgani kel.
Tortishgani kel. Bellashgani kel.
Kelmasang ham kel-o...
Bor-ho, kel-ho,
Hamalim-ha, Amalim, ha,
Sayil beyda, Tezda yetib kel.
Otda uchib kel. Sayilni topib kel.
Kuylagani kel. So`ylagani kel.
Quvnagani kel-o-o-o-
Eshitmadim demanglar,
Eshitganlkar ketmanglar.

4-sinf o`quvchilari ishtrokida Bahor darsi boshlanadi. Ko`rganlar darmonda, Ko`rmaganlar armonda. E-he-hey...

Tashkiliy qism: Ziyodaning “Bahor” qo`shig`i sadolari ostida o`quvchilar sinfga kirib keladilar. Navbatchilar davomat haqida hisobot beradilar.

O`qituvchi: Salomlashuv- Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar! Salom bolajonlar

Bolalar: Salomim so`lim,so`lim, ko`ksimdadir o`ng qo`lim
Aziz mehmonjonlarga deymiz Assalomu alaykum!

O`qituvchi: Bugungi ochiq darsimiz elimizning eng sevimli bayrami Navro`zga bag`ishlanadi.

Sinf o`quvchilari 3 ta guruhlarga bo`linishadi:

I guruh “Binafsha”

II guruh “Boychechak”

III guruh “Lola” nomlari bilan atalishini taklif etish. Har bir guruh a`zolari o`z guruhi bilan bog`liq gullarning barglaridagi savollarga ta`riflar yozishadi. Tarqatma savol yozilgan stikerlar qatorlarga uzatiladi.

CASE STUDY

Case study- quti degan ma`noni anglatib, o`quvchilarning jamoaviy faoliyatlarini aks etadi va ular ma`lum muammoli vaziyat yechimini topishlari kerak bo`ladi. 1 qadamda har bir guruxga ma`lum bir vaziyat e`lon qilinadi. 2 qadamda muammoli vaziyat tashkil etiladi. 3 qadamda yechimli topshiriq bajariladi.

Ushbu usuldan foydalanishda o`quvchilarda ham tayanch ham fanga oid kompetensiyalar shakllanadi va rivojlanadi.

“Binafsha” guruhi	
1-qadam:	Bizning darsimizga ekspertlar guruhi o`zbek xalq ayimlari bilan yaqindan tanishish maqsadida tashrif buyurganlar.
2- qadam:	Mehmonlarimizga guruh a`zolari hamjihatlikda lapar bilan yallaning farqi haqida, ma`lumotlar bera olasizmi?
3-qadam:	O`zbek xalq ayimlaridan yalla va laparga misollar keltiring

“Boychechak” guruhi	
1- Qadam:	Maktabimizda bahoriy bayramlardan biriga tayorgarlik ishlari olib borilayotgan edi.
2-Qadam:	Sizning guruhingiz qaysi bayramni tanlagan bo`lar edi?
3-Qadam:	Ushbu bayramga mos qo`shiqni ijro etib bering.

“Lola” guruhi	
1- Qadam:	Mahallamizda kelasi yakshanba qo`shnilar maslahatlashib sumalak taomini tayorlashar ekan.
2- Qadam:	Ushbu marosim haqida nimalarni bilasiz?

3- Qadam:

Sumalak marosimini sahna ko`rinishi orqali namoyish eting

Guruhlar javobidan kelib chiqib “O`zbek xalq musiqa ijodi” mavzusi umumlashtiriladi. Har bir qatnashgan o`quvchi smayliklar bilan rag`batlantirilib boriladi.

Yangi mavzu: “Navro`z xalq bayrami qo`shiqlari”

Sinkveyn- «Navro`z»:

1. Navro`z.
2. Go`zal va betakror.
3. Yangilanish, uyg`onish, quvonish.
4. Xalqimizning eng ezgu niyatli bayram.
5. Bayram. (Yangilanish)

O`quvchilar sekvedyn o`yiniga tayorlangun laricha boshlovchilar Navro`z haqida ma`lumot va she`rlar aytadilar.

Navro`z bayrami tarixi

Boshlovchilar: Navro`z O`rta Osiyo xalqlarining qadimiy bahoriy udumlari, ko`klamni e`zozlash, suv, olov, tuproq, quyoshga sig`inish bilan bog`liq marosim va qadimiy e`tiqodlar asosida bundan uch yarim to`rt ming yilcha burun paydo bo`lgan umumxalq bayramidir.

Boshlovchilar: Yil yangilanadigan bu shodiyona xalqimiz hayotiga shu qadar chuqur singib ketganki, u bilan bog`liq ajoyib an`ana va udumlar, fusunkor kuy va qo`shiqlar, navro`zning paydo bo`lishi bilan bog`liq afsona, asotir va rivoyatlar, bolalar folklori namunalari yaratilgan.

Tinglash madaniyati “Boychechak” qo`shig`I ijro etiladi. Musiqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi: - musiqa janrlarining nomlarini ayta oladi va ijro uslubidan ularni farqlay oladi

Boshlovchilar: Bolalar, Bahor fasli va navro`z bilan bog`liq qanday xalq maqollarini bilasiz?

Navro`z hikmatlari haqida ma`lumot 3`

- ❖ Yilning qanday kelishi navro`zdan ma`lum.
- ❖ Yaxshi odam ko`zidan ma`lum,
- ❖ Yaxshi yil navro`zdan.
- ❖ Navro`zdan so`ng qish bo`lmas,
- ❖ Mezondan so`ng yoz bo`lmas.
- ❖ Bahorgi harakat- kuzgi barakat
- ❖ Mart ekini mard ekan
- ❖ Bahorning bir kuni yilga tatir.

Jamoa bo`lib kuylash: Fanga oid kompetensiyalar elementlari:

“Navro`z kelibon” qo`shiqni ifodali ijro etish, kuyini tahlil qilish (Quvnoq, sho`x) asar mazmunini tahlili Jamoa bo`lib kuylash kompetensiyasi: -kuylash madaniyatiga va mahoratiga ega bo`la oladi

Baholash: Rag`batlarni hisoblash, gurux bo`yicha eng ko`p yig`ilgan ballarni aniqlash; har bir o`quvchi faolligini baholash.

Uyga vazifa: Navro`z mavzusiga oid ma`lumotlar asosida konspekt yozish, yangi qo`shiq so`zlarini yodlash. Axborot bilan ishlash kompetensiyasini oshirish.

Yakunlovchi qism: Xayrlashuv.

Ilova

“Binafsha”	“Boychechak”	“Lola”
<ul style="list-style-type: none"> • Lapar qanday ijro etiladi? Misol keltiring • Yalla qanday ijro etiladi? Misol keltiring • Qo`shiq qanday ijro etiladi? • Mehnat qo`shiqlari qanday turlarga bo`linadi? • Ozbek xalq cholg`ulari necha turga bo`linadi? 	<ul style="list-style-type: none"> • Bayramlar qanday turlarga bo`linadi? Misol keltiring • Qanday o`zbek xalq marosimlarini bilasiz? Misol keltiring • To`y marosimi haqida nimalar bilasiz? • Ramazon aytimlari haqida so`zlab bering • Navro`z marosimlari haqida nima bilasiz? 	<ul style="list-style-type: none"> • Mavsumiy qo`shiqlar deb nimaga aytiladi? • Qish gap – gashtaklari haqida so`zlab bering. • Bahor fasli marosimlariga misol keltiring • Navro`z bayrami va marosimlari haqida niomalar bilasiz? • Sayillar turlarini sanab o`ting

5-sinf

Mavzu: “Balet”

Dars mavzusi	“Balet”
Darsning maqsadi	<p>Dars maqsadi</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Ta`limiy maqsad: Jahon musiqa san`ati, balet janri bilan tanishish. ➤ Tarbiyaviy maqsad: Yevropa mumtoz musiqasini milliy musiqa bilan taqqoslab o`rganish. ➤ Rivojlantiruvchi maqsad: O`quvchilarda ijodiy mahorat nafosat va badiiy didni o`stirish, fikr doirasini kengaytirish. Kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash, O`zini - o`zi rivojlantirish kompetensiya elementlari shakllanadi
Vazifalari	Musiqa madaniyati darsini o`tish tartibi, shaklini to`g`ri aniqlash
O`quv jarayoning mazmuni	O`quvchilarda balet janriga bo`lgan qiziqishini orttirish, jahon musiqa madaniyatini bilishga yo`naltirish
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub : yangi mavzuni tahlil qilish</p> <p>Shakl: suhbat, munozara</p> <p>Vosita: proyektor, nootbook, fleshka, prezintatsiya, tarqatma materiallar, 5 sinf uchun darslik, dars ishlanmasi</p> <p>Usul: klaster, venna diagramma, BBB, test</p> <p>Nazorat: og`zaki savol-javoblar, kuzatish</p>

	Baholash: 5 balli tizim asosida baholash
Kutilayotgan natija	<p>O`qituvchi: O`quvchilarda musiqa faniga nisbatan qiziqishni oshirish, belgilangan vaqt ichida mavzuni to`liq yangi ped. texnologiyalardan foydalanib ochib berish, O`quvchilar faolligini oshirish. Dars jarayonida ko`proq o`quvchini baholashga erishish. Savol-javoblarga qatnashib, mustaqil fikrlashga o`rgatish.</p> <p>O`quvchi: Yevropa janrlaridan balet haqida ma`lumotga ega bo`ladi, nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Fanga oid kompetensiyalardan tinglab tahlil etish, kuylash kompetensiyalari rivojlanadi.</p>
Kelajakdagi rejalar	<p>O`qituvchi: O`z ustida ishlash, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish</p> <p>O`quvchi: Mustaqil fikrlashni o`rganadi, fikrini ravon bayon qila oladi. O`zining fikri va guruh fikrini tahlil qilib, mustaqil fikrlash malakasini hosil qiladi</p>

Darsning blok chizmasi

1	Tashkiliy qism: Salomlashuv. Davomatni aniqlash. Darsga tayyorgarlikni nazorat qilish	3
2	O`tilgan mavzuni mustahkamlash: Sahnaviy musiqa asarlari haqida suhbat. sahna, teatr, janr haqida klasterdan foydalanib takrorlash	7
3	Yangi mavzu: Balet haqida ma`lumotlar berish. BBB usuli, musiqali lug`aviy diktant. milliy balet haqida ma`lumot berish.	10
4	Tinglash: Baletdan parchalar tinglash	5
5	Mustahkamlash: mavzuni mustahkamlash, test yechish	5
6	Jamoa bo`lib kuylash: "Sumalak" qo`shihg`in I o`rganish	5
7	Baholash: faol o`quvchilarni rag`batlantirish. 5 balli tizim asosida baholash	3
8	Darsni yakunlash: uyga vazifa mavzu yuzasida qo`shimcha ma`lumotlar yig`ib konspekt yozish	2

Darsning borishi

Tashkiliy qism: Musiqa sadolari ostida o`quvchilar sinfga kirib keladilar. Salomlashuv, tanishuv- beyjklarga ismlar yoziladi. Navbatchilar dasvomat haqida hisobot beradilar.

O`tilgan mavzuni takrorlash: Sinf o`quvchilari 3 ta guruhlariga bo`linishadi:

I gurux "Sahna",

II gurux "Teatr"

III gurux “Janr” nomlari bilan atalishni taklif etish. Har bir guruh a`zolari o`z guruhi nomi bilan bog`liq savollarga ta`riflar yozishadi. Tarqatma savol yozilgan stikerlar qatorlarga uzatiladi.

“Sahna”	“Teatr”	“Janr”
<ul style="list-style-type: none"> • Sahna deganda nimani tushunasiz? • Sahnalar qayerlarda uchraydi? • Teatr sahnasi bilan sirk arenasi farqi va o`xshashligini toping • Drama teatri bilan musiqiy teatr sahnalaridagi farq qanday? • Sahna bezagi – dekoratsiya haqida nima bilasiz? 	<ul style="list-style-type: none"> • Toshkent shahridagi teatrlarni bilasizmi? • Qaysi teatrlar musiqiy asarlar uchun mo`ljallangan? • Musiqiy teatlarda qanday janrlarda asarlar qo`yiladi? • Navoiy teatri bilan Muqimiy teatlardagi orkestrlarning farqi qanday? • Opera va balet janrlari qaysi teatrdah sahnalashtiriladi? 	<ul style="list-style-type: none"> • Sahnaviy musiqa asarlariga nimalar kiradi? • Opera so`ziga krasvord tuzing. • Balet haqida nimalar bilasiz? • Musiqali drama bilan spektakl venna diagrammasi usulida farqlang • Komediya so`ziga ta`rif berring.

Guruhlar javobidan kelib chiqib “Sahnaviy musiqa asarlari” mavzusi umumlashtiriladi. Har bir qatnashgan o`quvchi smayliklar bilan rag`batlantirilib boriladi.

Yangi mavzu: “Balet sa`nati” (BBB Usuli):

Bilardim

Bilishni hohlayman

Bilib oldim

Musiqali lug`at diktanti

O`quvchilar balet san`atida ishlatiladigan terminlar bilan tanishtiriladi: Balet, baletmeyster, xoreograf, libretto, puanta, pa-de-de (juftlikdagi raqs), Pa-de-trua (Uchta raqqoslar ijrosi), kompozitor, simfonik orkestr, dirijor, dekoratsiya.

Balet so`zi fransuzcha “ballero” - raqsga tushaman ma`nosini anglatadi. Balet san`ati XVI asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. So`zsiz pantomimo harakatlari orqali musiqa vositasida sahnada voqealikni tasvirlash uchun kompozitor, baletmeyster, raqqoslar va rassomlarning hamkorlikdagi mehnati ulkandir.

Baletmeyster – kompozitor bilan hamkorlikda ish olib boradi. Sahna asariga kompozitor tomonidan balet uchun musiqa yozadi, shu musiqaga mos voqealarni ta`riflash uchun raqs harakatlarini baletmeyster yaratadi.

Libretto – baletning senariysi, sahna asarining yozma ko`rinishi.

Puanta – balerinalar uchun maxsus poyafzal.

Pa-de-de - baletda juft bo`lib raqsga tushish

Pa-de-trua - 3 ta raqqoslarning sahnada ijro etishiga aytiladi.

Baletda o`chmas iz qoldirgan kompozitor baletlar qiroli – P.I.Chaykovskiy (“Oqqushlar ko`li”, “Yong`oqchaqar”, va “Uyqudagi go`zal”)

Simfonik orkestrning balet san`atida o`rni beqiyos, chunki, tomoshabinga sahnadagi voqelik, aynan, musiqa orqali ta`sir kuchi bo`ladi.

Dirijor - orkestr boshqaruvchisi, kompozitor yaratgan asarni tomoshabinga yetkazadigan zahmatkash balet rahbarlaridan biri/

Dekoratsiya – sahna bezagi. Bunda rassomlarning yillar davomida syujet asosida yaratgan eskiz rasmlaridir. Har bir baletga mos dekoratsiya iushlatiladi.

Tinglash: Kelinglar, hozir baletdan bir parcha tomosha qilamiz.

O`zbek baletlari

O`zbekistonga balet san`ati XX asrning 30 yillarida Yevropadan, xususan, Chor Rossiyadan kirib kelgan. 1948-yili Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomli Katta Akademik opera va balet uchun maxsus teatr qurildi. Ilk o`zbek xoreograflaridan biri Usta Olim ota bo`lgan. Baletchi raqqoslardan Tamaraxonum, Mukarrama Turg`unboyeva, keyinchalik balet malikasi Bernara Qoriyevalar xalq ardog`ida bo`lganlar.

Mustahkamlash: Test sinov savollari (Og`zaki)

1. Balet so`zining ma`nosi nima?
 - A) Kuylayman
 - B) Raqsga tushaman
 - C) Tinglayman
2. Sahna bezagi nima deb ataladi?
 - a) Dekoratsiya
 - b) Libretto
 - c) Xoreografiya
3. Balet musiqasini ijro etadi...
 - a) Simfonik orkestr
 - b) Milliy cholg`ular orkestri
 - c) Ansambl
4. “Oqqush ko`li” baletini kim yaratgan?
 - a) S. Prokofyev
 - b) M. Ashrafiy
 - c) P.I.Chaykovskiy
5. Balet spektakli ijro etiladi...
 - a) Milliy teatrda
 - b) Muqimiy teatrda
 - c) A. Navoiy teatrda

Test kaliti

1	2	3	4	5
B	A	A	S	S

Jamoa bo`lib kuylash: “Sumalak” yangi qo`shiqni tinglash;(Ifodali ijro) kuyini tahlil qilish (Quvnoq, sho`x) asar mazmunini tahlili (Qish faslining

o`zgacha ziynati, tarnovlardagi sumalaklarning go`zalligi; beqarorligi; xavfliligi; zararliligi haqida tushunchaga ega bo`lish; Ifodali ijro. Sahna madaniyati, ifodali kuylash kompetensiyalari rivojlanadi.

Baholash: Rag`batlarni hisoblash, guruh bo`yicha eng ko`p yig`ilgan ballarni aniqlash; har bir o`quvchi faolligini baholash.

Uyga vazifa: balet mavzusiga oid ma`lumotlar asosida konspekt yozish, yangi qo`shiq so`zlarini yodlash. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari rivojlanadi.

Yakunlovchi qism: Xayrlashuv.

6-sinf

Mavzu: Zamonaviy musiqa - Estrada yonalishi

Mavzu	Zamonaviy musiqa - Estrada yonalishi
Dars maqsadi va vazifalari	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Ta`limiy maqsad: Estrada musiqasi haqida bilimga ega bo`lish. Kommunikativ kompetensiya elementi shakllanadi ➤ Tarbiyaviy maqsad: Zamonaviy musiqa ummonida to`g`ri tanlov qila olish. Milliy va umummadaniy kompetensiya elementi shakllanadi ➤ Rivojlantiruvchi maqsad: O`quvchilar dunoqarashini kengaytirish Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi va O`zini - o`zi rivojlantirish kompetensiyasi elementi rivojlanadi. ➤ Vazifalar Estrada va uning turlari haqida ma`lumot berish; o`quvchilar dunyoqarashini kengaytirish; Har bir o`quvchining fikrini eshitish, shaxsiy fikrini erkin-ravon bayon etish, tahlil va tanqid eta olish
O`quv jarayoni mazmuni	Dars samaradorligini oshirish, mavzuni keng ochish
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub: Noan`anaviy Shakl: O`yin, trening, baxs munozara Vosita: Tarqatma materiallar, slayd, video lavhalar Usul : Uchinchi so`z ortiqcha”, “Nima uchun?”, klaster, venna diagrammasi, muammoli usul, “Bu kim?” Nazorat: rag`batlantiruvchi smayliklar Baholash: 5 balli tizim asosida baholash</p>
Kutilayotgan natija	<p>O`qituvchi: darsni belgilangan vaqtda samarali o`tish, mavzuni yangi pedagogic texnologiyalar bilan qiziqarli va mazmunli o`tishga harakat qilish.</p> <p>O`quvchi: shaxsiy fikrga ega bo`lish, mustaqil o`z fikrini erkin va ravon bayon etish. Guruxlararo bellashuvda o`quvchilarning kommunikativ, o`zini-o`zi rivojlantirish,</p>

	axborotlar bilan ishlash kompetensiya elementlari shakllanadi.
Kelajakdagi rejalari	O`qituvchi: yangiliklardan boxabar bo`lish, O`z ustida ishlash, malakani oshirish, mahoratni ko`rsata bilish. O`quvchi: har bir darsga ijodiy yondashish, mavzularni chuqur tahlil eta olish, BKMK larini oshirib borish

Dars turi: Noan`anaviy

Darsda qo`llaniladigan jihozlar: proektor, slayd, tarqatma materiallar, fortepiano cholg`usi.

Darsda qo`llaniladigan usullar: Uchinchi so`z ortiqcha”, “Nima uchun?”, klaster, venna diagrammasi, muammoli usul, “Bu kim?” o`yini

Darsning blok chizmasi

1	Tashkiliy qism: O`quvchilarning musiqa ostida sinfga kirishi. Salomlashuv. Navbatchilar hisoboti. Darsga tayyorgarlikni nazorat qilish Navoiyxonlik va Boburxonlik haqida qisqacha ma`lumotlar	2`
2	O`tilgan mavzuni mustahkamlash: Folklor va estrada musiqasi yuzasidan “Uchinchi so`z ortiqcha” o`yinidan foydalanib o`tilgan mavzuni mustahkamlash	8`
3	Yangi mavzu: Klaster - Estrada musiqasi haqida ma`lumotlar berish Venna diagrammasi usulida taqqoslash.	5`
4	Mustahkamlash. Muammoli metod: Estrada musiqasining ijobiy va salbiy xususiyatlari haqida	10`
5	Kuylash: “O`zbekimdan aylanay” ifodali ijro “Bu kim?” o`yini	8`
6	Yakuniy qism: Baholash: faol qatnashgan o`quvchilarni 5 balli tizim asosida baholash. Qiziqarli ma`lumotlar. Estrada cholg`ulari: Zamonaviy Estrada musiqasini ijro etadigan yangi cholg`ular bilan tanishish(Video lavhalar)	2` 10`

Darsning borishi

Tashkiliy qism: O`quvchilar zamonaviy estrada xonandasi Botir Qodirovning “Ey, do`stim” qo`shig`I sadosi ostida sinfga kirib keladilar. O`z o`rinlariga joylashib turadilar. Assalomu alaykum, hurmatli o`quvchilar, rahmat o`tiringlar. Navbatchilarning hisoboti tinglanadi

Hozir qanday oy ? (Fevral) Kechagi sana “9 fevral” bilan bog`lab endi aytingchi, hozir qanday oy? Yurtimizda 9 fevraldan 9 martgacha **Navoiy xonlik** va **Boburxonlik** oylari deb e`lon qilingan. Bunda ko`plab tadbir va kechalar o`tkasiladi.Hazrat Navoiy haqida o`z fikrlaringizni bildiring, marxamat. O`quvchilar Navoiy haqida ma`lumotlarni bayon etadilar. Boshlangan fikrlarni davom ettirish o`yini. “Alisher Navoiy” nomli ... Navoiy nomini qayerlarda uchratishimiz mumkin? Yangrayotgan asarga e`tibor bering, “Munojot” asari ,

mualliflari -xalq kuyi, Navoiy g`azali .kim tomonidan va qanday yo`nalishda ijro etilgan? Nasiba Abdullayeva Estrada yo`nalishida ijro etmoqda. Yana shu oyda kimning tug`ilgan kunini nishonlaymiz? Zaxriddin Muxammad Bobur. Bobur g`azaliga kuylanadigan qanday asarni bilasiz? (“Soqiynomai safti kalon”) Barakalla. Ifodali ijro. **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi elementi shakllanadi**- axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish. Internet-saytlardan musiqaga oid ma`lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish.

O`tilgan mavzuni mustahkamlash:

O`tgan darsda nimalar haqida suhbatlashgan edik? Hozir ajoyib o`yin orqali o`tilgan mavzuni mustahkamlaymiz. O`yinimizning nomi “**Uchinchi so`z ortiqcha**” deb nomlanadi. To`g`ri topilgan “ortiqcha” so`ziga ta`rif etib o`tish kerak. Qolgan ikki so`zning berilgan mavzuga nima aloqasi borligini ham aytishingiz kerak. O`yinda faol qatnashgan o`quvchilar smayliklar bilan rag`batlantiriladi. Dars yakunida ko`p rag`bat yig`gan o`quvchilar baholanadi.

O`yin boshlashdan avval “**Oltin qoidalar**”imizni eslab olsak:

1. Intizom
2. O`ng qo`l qoidasi
3. O`zgalar fikrini tinglash va xurmat qilish
4. Shaxsiy fikrga ega bo`lish
5. Javoblarni qisqa va aniq berish

Ushbu o`yinda o`quvchilarning **O`zini - o`zi rivojlantirish kompetensiyasi elementi** shakllanadi : bilimni mustaqil ravishda oshirib borish; o`zining qiziqishlariga ko`ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

“**Uchinchi so`z ortiqcha**” o`yini

Folklor musiqasiga oid 3 ta so`zdan biri ortiqcha:

✓ **Alpomish. Buzruk. Rost.**

To`g`ri javob- Alpomish so`zi ortiqcha. Alpomish - xalq dostoni qahramoni . Nima uchun ushbu so`z ortiqcha? Chunki, Buzruk, Rost so`zlari bir-biriga uzviy bog`liq. Ular folklorning professional turi – maqom san`atining atamalari. Alpomish so`zi maqomga tegishli emas. **Demak** , folklorning kasbiy yo`nalishiga **maqom** janri kiradi. To`g`ri javoblar rag`batlantiriladi.

✓ **Baxshi. Hofiz. Xalfa.**

Ortiqcha so`z – Hofiz, nima uchun? Chunki, baxshi va xalfalar milliy dostonchilik san`ati bilan bog`liq . Hofiz deb kimga aytiladi? Xalfa deb kimni aytamiz? **Xulosa, dostonchilik** folklor musiqaning kasbiy janri ekan. Barakalla.

✓ **“Boychechak”. “Kim oladi?”. “Yor-yor”**

Qaysi so`z ortiqcha? “Yor-yor” – bu to`y marosimlarida ijro etiladigan asar. “Boychechak” va “Kim oladi?” asarlari **bolalar folkloriga** mansub. Demak, biz yana bir folklor turini ochib beramiz- bu bolalar folklori.

✓ **“Kelin salom”. “Qo`sh hayda”. “O`lan”**

Qani tushuntirib beringchi, qaysi so`z ortiqcha ekan? Ushbu uchlikda “Qo`sh hayda” so`zi tushib qoladi, chunki kelin salom va o`lan to`y marosimi bilan bog`liq asarlar.

Estrada musiqasiga oid soʻzlarni koʻrib chiqamiz.

✓ **1920 yil. 1950 yil. 1990 yil.**

Yillar solnomasi nimani anglatadi? Ulardan ikkisi bugungi mavzumizga uzviy bogʻliq va biri ortiqcha. 1950 yili yevropadfa ilk **Estrada janri** toʻliq shklangan, 1990 yillarda juda rivojlangan. 1920 yili hali Estrada boʻlmagan.

✓ **Pop. Simfoniya. Rep.**

Pop va Rep zamonaviy Estrada **yoʻnalishlari** hisoblanadi. Simfoniya soʻzi ortiqcha, chunki simfoniya yevropaning mumtoz **janrlaridan** biri.

✓ **Retro. Maqom. Sauntrek.**

Retro va sauntrek **zamonaviy musiqa** yoʻnalishlari, maqom esa **milliy mumtoz** musiqasi hisoblanadi.

✓ **Yengil. Ommabob. Murakkab.**

Murakkab soʻzi ortiqcha. **Estrada** musiqa **ommabob va yengil** qabul qilinadigan musiqa turiga kiradi, ushbu oʻyin orqali kommunikativ kompetensiya rivojlanadi.

Mana, oʻtilgan mavzuni mustahkamlash orqali estrada musiqasi haqida bilib oldik. Endi bugungi rejalarimiz bilan tanishsak:

1. Klaster usuli . Shaxsiy fikr , taklif, baxs va mulohaza . Shaxsga yonaltirilgan taʼlim texnologiyasi

2. Guruxlar aro bellashuv . Estrada musiqasini bilasizmi? Muammo va uning yechimi.

3. ”Bu kim?” oʻyini .Rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyalari va usullari

4. Kuylash. Oʻquvchilar ijodiy ishlari

Klaster usuli

Diqqat. Ekranida kalster usuli biroz oʻzgacha, berilgan atamalarni bitta soʻz bilan qanday nomlash mumkin? Klassika, folklor, bolalar musiqasi, Estrada, sauntreklar, bastakorlar ijodi v.h. ushbu soʻzlarni nima soʻz birlashtiradi. (Estrada)

Estrada janri qanday yoʻnalishlarga ega?

1. **Topshiriq:** Oʻquvchilar daftarga klaster usulida Estrada soʻziga taʼriflar yozadilar. Har bir oʻquvchi oʻz **shaxsiy fikrlari** bilan oʻrtoqlashadi.

2. **Topshiriq:** Oʻtgan darsda Estrada musiqasiga jodiy yondoshib mustaqil ish tayyorlash uyga vazifa etib tayinlangan edi. Klasterdagi koʻrsatilgan yoʻnalishlar boʻyicha ixtiyoriy ravishda 3 ta yonalish tanlash kerak.

3. **Topshiriq:** ijodiy ish tayyorlagan oʻquvchilar tanlangan Estrada yoʻnalishlar boʻyicha 3 ta kichik guruhlar tashkil etish taklif etiladi. Har bir guruhni yoʻnalish nomi bilan nomlash mumkin. Masalan, “Pop”, “Retro” va “Rep” guruhlari

“Estrada musiqasini yaxshi bilasizmi?” oʻyini

Oʻyin sharti: Har bir guruh aʼzolari hamkorlikda oʻz yonalishlari haqida umumiy maʼlumotlar berib oʻtadi.

“Pop” musiqasi guruhi:

Pop – “Popular” ommabob, yengil musiqa janri Estrada musiqasining eng rivojlangan yoʻnalishi
--

“Retro” musiqasi guruhi:

Retro – oldingi davrdagi musiqalarni yoshlar tomonidan yangicha talqini

“Rep” musiqasi guruhi

“Rep” Estrada musiqasining rehitativ , aniq ritm va o`zgacha uslubga ega yo`nalishi

Javob bergan guruh a`zolariga rag`bat smayliklari beriladi.

1. Estrada musiqasining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlab, 3ta sababini ko`rsatish va yechimini topish.

“Pop” musiqasi guruhi

+	-	Xulosa
1. Ko`pchilikka yoqadi.	1. Saviyasi yuqori bo`lmagan, ma`nosi sayz asarlar mavjudligi.	
2. Yengil va oson qabul qilinadi.	2. Texnika rivojidan noto`g`ri foydalanish oqibatida - fonogramma, ovozlarni texnik ko`tarish.	“Chumchuq so`ysa ham qassob so`ysin”
3. Insonlarning his- tuyg`ulari chiroyli aks etadi	3. Ko`pincha Estrada yo`nalishidagi xonandalar ham shoir, ham bastakorlikka qo`l urishadi.	

“Retro” musiqasi guruhi

+	-	Xulosa
1. Unut bo`lgan musiqalarga yangi hayot bag`ishlanadi.	1. Haddan ziyod retro musiqaga berilish oqibatida rivojlanish, yangi asarlar yaratish sekinlashadi.	
2. O`rta va keksa avlodga yoshligini eslatadi, xotiralar jonlanadi.	2. Zamonaga mos emas, moda emas, eskicha musiqa	“Har narsada – me`yor yaxshi”
3. Zamonaviy musiqa yanada boyitiladi.	3. O`sha davrdagi dolzarblik eskirib qoladi	

“Rep” musiqasi guruhi

+	-	Xulosa
1. Yoshlarbob musiqa- ritmi aniq, tez gapiriladi	1. kuydan mahrum, faqat so`zlashuvga o`xshab ketadi	
2. Hayotiy voqealar haqida zamonaga mos	2. mazmuni sayoz, maqsadsiz, g`oyasiz musiqa	“Birni ko`rib fikr qil, birni ko`rib shukur qil
3. Zamonaviy musiqa yanada boyitiladi.	3. nolish hissi uyg`otiladi, noshukrlik kayfiyati hukm suradi	

Guruhlar o`zaro kelishib olguniga qadar qolgan o`quvchilarga esrtada musiqasida qo`llaniladigan zamonaviy cholg`ular bilan tanishtirish. Baraban – Estrada yo`nalishini asosiy ritm ushlab turuvchi cholg`u. Barabanlar majmua

holida ijro etiladi. (video lavha) Elektro gitara – uning turlari ko`p bo`lib, simli va simsiz(sensor) turlari mavjud.(video lavha) Elektro sintezator –klavishli cholg`u, zamonaviy sintezatorlarda deyarli barcha cholg`ular ovozi ijro etish mumkin. Kompyuterlashtirish ham mumkin.(video lavha) Zamonaviy cholg`ulardan biri – xang. (video lavha) Skripka cholg`usi ham zamonaviy shaklda namoyon bo`lishi mumkin.(video lavha) Yig`ilgan ballarni hisoblash va g`olib guruhni aniqlash. Tinglash va tahlil qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

Kuylash: “O`zbekimdan aylanay”. O`quvchilarda ona- Vatanga bo`lgan mehr-muhabbatni shakllantirish kompetensiyasi oshadi.

❖ ifodali ijro

❖ o`quvchilar taklifiga ko`ra qo`shiq kuylash

Mustahkamlash. Baholash: Darsda faol qatnashgan o`quvchilarni 5 balli tizim asosida baholash.

Uyga vazifa: ijodiy ish. “Botir Zokirov” haqida ma`lumotlar yig`ish. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi elementini shakllantirish

**TASVIRIY SAN’AT FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI
TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**
(sinflar kesimida dars ishlanmalardan namunalari)

4-sinf

Dars mavzusi: To`g`rito`rtburchak va turli shakllarda naqsh kompozitsiyasini ishlash.

Texnologik xarita

Mavzu	To`g`rito`rtburchak va turli shakllarda naqsh kompozitsiyasini ishlash.
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: O`quvchilarga xalq amaliy san`ati haqida ma`lumot berish va tushuncha hosil qilish. O`zbek xalq amaliy san`ati ustalari va ularning ijodiy faoliyati bilan tanishtirish orqali o`quvchilarning badiiy fikr doirasini kengaytirish.</p> <p>Vazifalar: o`quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg`otish, o`quvchilarni amaliy bezak san`ati namunalari o`qishga o`rgatish, o`quvchilarning amaliy san`at namunalari orqali xalq ustalariga nisbatan hurmatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.</p>
O`quv jarayonining mazmuni	O`quvchilarga xalq amaliy san`ati va uning negizi naqsh ekanligini haqida tushuncha berish. Islimiy, girix, murakkab naqsh kompozitsiyasini tuzish haqida tushuncha berish. Andozalar yordamida naqsh kompozitsiyalarini tuzish va chizishni o`rgatish.

<p>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p>	<p>Uslub: ma`lumot va hikoya, klaster, test Shakl: aqliy hujum, guruhlarda ishlash Vosita: tarqatma materiallar, slaydlar, fotolar, rag'batlantiruvchi kartochkalar Usul: noan'anaviy Nazorat: og'zaki nazorat , savol va javoblar, o'z-o'zini nazorat qilish Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash</p>
<p>Kutiladigan natijalar</p>	<p>O'qituvchi: berilgan vaqt davomida yangi mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tasavvur va xotirasini mustahkamlash. O'quvchi: o'quvchilarga naqsh elementlarini stilizatsiyalash orqali his qilishni o'rgatish, ularda ijodkorlik va badiiy didni o'stirish.</p>
<p>Kelgusi rejalar</p>	<p>O'qituvchi: yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogik mahoratini oshirish, mavzuni bugungi kungi hayot bilan bog'lash O'quvchi: mavzu bo'yicha mustaqil amaliy ishlashni o'rganadi.</p>

Dars maqsadi:

I. Ta'limiy maqsad- O'quvchilarga O'zbekiston xalq amaliy san'ati haqida ma'lumot berish va to'g'rito'rtburchak va turli shakllarda naqsh ishlash usullarini o'rgatish, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini o'stirish.

II. Tarbiyaviy maqsad- O'quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, amaliy bezak san'ati namunalarini o'qishga o'rgatish, o'quvchilarning amaliy san'at namunalari orqali xalq ustalariga nisbatan hurmatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy va umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirish.

III. Rivojlantiruvchi maqsad- O'quvchilarni amaliy san'at namunalarini idrok etishga o'rgatish, o'zbek xalq amaliy san'atiga nisbatan hurmatlarini oshirish. O'quvchilarni naqqoshlik san'atiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, o'quvchilarda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini o'stirish.

Dars turi: Aralash.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, ko'rsatish, tahlil qilish , amaliy ish.

Dars jihozi: Mavzuga oid rasmlar, bukletlar, slaydlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar.

Dars bloki:

I. Tashkiliy qism.

II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash.

III. Yangi mavzu bayoni.

IV. Amaliy ish.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism.

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

v) Darsga hozirlik ko'rish. Ish joylarini taxt qilish.

Sinf navbatchi axboroti tinglanadi. Kun yangiliklari haqida suhbat o'tkaziladi.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash.

Avvalgi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.




A) O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qushlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

2. O'zingiz bilgan qush nomlarini ayting.

3. Qushlar boshqa jonzotlardan nimasi bilan farq qiladi?

B) Rasm daftaringizga tezkor ravishda qush eskizini ishleng.



Barcha javoblar umumlashtiriladi. O'quvchilarning eskiz ishlari tekshiriladi va baholanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Doskaga yangi mavzu yoziladi.

“To'g'rito'rtburchak shaklida naqsh ishlash. Turli shakllarda naqsh kompozitsiyasini yaratish”

Xalq amaliy san'ati deganda, ajdodlarimiz asrlar davomida yaratib kelgan hamda ustalarimiz tomonidan bugun ham davom ettirilayotgan milliy hunarmandchilik buyumlari va amaliy san'at asarlarini tushunamiz.


Naqsh- arabcha soʻz boʻlib, “gul va barg” degan maʼnoni anglatadi.

Naqsh- amaliy bezak sanʼatning eng ommalashgan turlaridan biridir.

Qadimda insonlar tabiatdagi goʻzalliklarni koʻrib, bu goʻzallikni uylarining devorlariga, uy- roʻzgʻor buyumlariga chiza boshlaganlar.

Oʻquvchilarga naqqosh ustalardan Usta Shirin Murodov haqida maʼlumot beriladi.

Turli xil naqshlar amaliy sanʼatning asosini tashkil qilib, ular uch turga boʻlinadi:



1. Islimiy naqsh:

Egri chiziqli oʻsimliksimon shaklli elementlardan tashkil topgan naqsh islamiy naqsh deyiladi. Bunda naqsh elementlari badiiylashtirib, yani stilistik yoʻl bilan yaratiladi. Naqsh elementlari oʻsimliklar, ularning gullari, barglar, novdalar, qushlar, hayvonlarning tasvirlarini stilizatsiya qilish orqali hosil boʻladi.



2. Girix naqsh:

Toʻgʻri chiziqli geometrik shakllardan tashkil topgan naqsh- girixli naqsh deyiladi.

Bu naqshlar ganchkorlikda, yogʻoch oʻymakorlikda ishlatiladi.




3. Murakkab naqsh:

Islimiy va girix naqshlaridan aralash tarzda tuzilgan naqsh murakkab naqsh deyiladi.



Soʻngra oʻquvchilarga stilizatsiyalash usllari sinf doskasida koʻrsatib beriladi.



Lola gulini stilizatsiyalash



Bodom mevasini stilizatsiyalash

Soʻngra oʻquvchilarga toʻgʻritoʻrtburchak shaklida naqsh ishlash animatsion videorolik namoyish qilinadi.

IV. Amaliy ish.

Amaliy ishda guruhlariga andozalar yordamida naqsh kompozitsiyasini ishlash vazifasi beriladi.

I-guruhga: Lolasimon andozadan yoʻlsimon naqsh ishlash.



Birinchi bosqich: qogʻoz markazidan sal pastroqqa yotiq (gorizontal) chiziq chiziladi. Lolasimon andozani yotiq chiziq markaziga qoʻyib shaklni qalam bilan chizib tushirib olinadi.

Ikkinchi bosqich: chizib tushirilgan lolasimon shaklning oʻng va chap tomonlariga yana oʻsha andozani chizib tushirishni davom ettiring.




Uchinchi bosqich: lolasimon andoza beshta chizib tushirilganidan keyin andoza shakllarining yuqori qismiga tekka ikki qator toʻgʻri chiziq chiziladi. Lolasimon shakllarning pastki chizigʻini ham ikki qator qilib chiziladi. Ikki qator chiziqlarning qalinligi taxminan 0,5 santimetr boʻladi. Yoʻlsimon naqsh oʻng va chap chekka qismlarini chiziq bilan berkiting.

Toʻrtinchi bosqich: lolasimon andozaning ichki bezaklarini cizing v aboʻyang.




II- guruhga: Lolasimon andozadan doira naqsh hosil qilish.

Birinchi bosqich: Qogʻoz markazidan doira naqsh sxemasi uchun yotiq, tik va diagonal chiziqlar chizib olinadi.




Ikkinchi bosqich: sxema markazidan yotiq, tik, diagonal chiziqlar bo‘ylab 2,5 santimetr bir xil uzoqlikda nuqtalar belgilanadi. Nuqtalardan sxema markazi tomon bargchalar chizib chiqiladi.



Uchinchi bosqich: lolasimon andozani bargchalarni yuqori tomoniga qo‘yib, chizib tushirib chiqiladi.

To‘rtinchi bosqich: lolasimon andozaning ichki bezaklari chiziladi.

Beshinchi bosqich: lolasimon doira naqshga rang tanlanadi va bo‘yaladi.




II-guruhga: Lolasimon andozadan kvadrat naqsh hosil qilish.

Birinchi bosqich: qog‘oz markazidan tik va yotiq chiziq chizib oling. O‘q chiziqlarining o‘ng va chap tomonlariga 7,5 santimetr uzoqlikda nuqtalar belgilang.


Ikkinchi bosqich: qog‘oz markazidan tik va yotiq chiziq chizib oling. O‘q chiziqlarining o‘ng va chap tomonlariga 7,5 santimetr uzoqlikda nuqtalar belgilang.

Uchinchi bosqich: nuqtalarni birlashtirib kvadrat hosil qiling va kvadratni 0,5 santimetrlik ikki qavat hoshiya qilib chizib olinadi.

To‘rtinchi bosqich: kvadratni burchaklarini diagonal chiziqlar bilan birlashtiriladi. Kvadratning markaziy chiziqlariga va burchaklariga lolasimon andozani chizib tushiriladi




Beshinchi bosqich: Tushirilgan andozalarning chekka qismlarini egri chiziqlar bilan tushirib olinadi va hosil bo'lgan naqshga rang beriladi.



IV- guruhga: Lolasimon andozadan guldasta naqsh hosilqilish.


Birinchi bosqich: qog'ozni to'rt chekka qismiga hoshiya chizib burchaklariga bezak andozasini chizib tushirib olinadi. Qog'ozni tik qo'yib o'rtasidan yordamchi tik to'g'ri chiziq chiziladi. To'g'ri chiziqni pastki qismiga ixtiyoriy shakldagi ko'zacha rasmini tasvirlanadi.

Ikkinchi bosqich: ko'zachadan chiziq bo'ylab 5-10 santimetr balandlikda 2 ta nuqta belgilang. Ko'zadan yuqori nuqtagacha bo'lgan masofada bargsimon shakl chiziladi.



Uchinchi bosqich: bargsimon shaklning avval o'rtasiga keyin o'ng va chap tomonlariga lolasimon andozani qo'yib chizib tushirib olinadi. Bargsimon shaklning o'rtasidagi nuqtaga bitta, o'ng va chap tomoniga yana bittadan lolasimon andozani qo'yib chizib tushirib olinadi.

To'rtinchi bosqich: chizib tushirilgan lolasimon andoza, bargsimon shaklning yuqori qismiga 5 ta, bargsimon shaklning o'rta qismiga 3 ta chizib tushirilishi mumkin.



Beshinchi bosqich: lolasimon andozadan tuzilgan guldasta naqshining shoh va barglarini ixtiyoriy shaklda chizib olinadi. Lolasimon andoza ichki bezaklarini chizib, guldasta naqshiga rang beriladi.

Guruhlarning ishlari nazorat qilinadi, zarurat bo'lsa amaliy yordam beriladi.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Guruhlarning amaliy ishlari "Taqqimot" metodi orqali tekshiriladi, tahlil qilinadi.

Amaliy ish yuzasidan mustahkamlash uchun savollar beriladi.

I-guruhga: 1. Yo'lsimon naqsh qayerlarda ishlatiladi?

2. Amaliy bezak san'ati turlarini aytib bering.

II-guruhga: 1. Doira shaklidagi naqshlar qayerlarda qo'llaniladi?

2. Qanday naqsh turlarini bilasiz?

III-guruhga: 1. Kvadrat shaklidagi naqsh haqida so'zlang.

2. Naqsh markaazi qanday aniqlanadi?

IV-guruhga: 1. Siz bajargan guldasta naqshi qayerlarda qo'llaniladi?

2. Naqsh bilan bezatilgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qanday buyumlarni bilasiz?

Guruhlarning javoblari tinglanadi va o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi. G‘olib guruh e‘lon qilinadi va rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

Ish daftaringizga bugungi mavzuga oid bo‘lgan atamalarni yozib qo‘ying.

Darslikdagi 7-mavzuga oid to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bosqichli naqsh namunasidan nusxa ko‘chirish.

5-sinf

Dars mavzusi: Tasviriy san`atda portret. Portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etish

Texnologik xarita

Mavzu	Tasviriy san`atda portret. Portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etish
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: o‘quvchilarga tasviriy san`atda portret janri haqida ma’lumot berish, portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etishga o‘rgatish, portretning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasini, portretni ishlash bosqichlarini ketma-ketligida to‘g‘ri bajarish kompetensiyalarini shakllantirish.</p> <p>Vazifalar: o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, o‘quvchilarda milliy qahramonlarimiz va ajdodlarimizga nisbatan mehr va hurmat hissini uyg‘otish mavzu asosida bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. Adabiy asarlar syujeti asosida portret ishlaganda tasviriy va mazmun mutanosibligiga erishish qobiliyatlarini rivojlantirish.</p> <p>Portret janirini o‘rganishda kommunikativ, o‘zi-o‘zini rivojlantirish, milliy va umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish.</p>
O‘quv jarayonining mazmuni	Tasviriy san`atning portret janri haqida tushuncha berish, o‘quvchilarda portret janri orqali o‘z tarixi, o‘zligi va shu bilan birga insonning ichki qiyofasini o‘rganish qobiliyatini shakllantirish.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub: ma’lumot va hikoya, klaster, test</p> <p>Shakl: aqliy hujum, guruhlarda ishlash</p> <p>Vosita: tarqatma materiallar, slaydlar, fotolar, rag‘batlantiruvchi kartochkalar</p> <p>Usul: noan`anaviy</p> <p>Nazorat: og‘zaki nazorat, savol va javoblar, o‘z-o‘zini nazorat qilish</p> <p>Baholash: rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida</p>

	baholash
Kutiladigan natijalar	<p>O'qituvchi: berilgan vaqt davomida yangi mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiradi, mustaqil fikrlashga o'rganadi, tasavvur va xotira mustahkamlanadi.</p> <p>O'quvchi: o'quvchilarga tarixiy yoki afsonaviy qahramonlarni tasvirlar orqali his qilishni o'rganadi, ularda ijodkorlik va badiiy didni o'stiradi.</p> <p>O'quvchilarda fanga oid naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi va tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to'g'ri bajarish kompetensiyalari hamda kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyalari shakllantiriladi.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O'qituvchi: yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogik mahoratini oshirish, mavzuni bugungi kungi hayot bilan bog'lash</p> <p>O'quvchi: mavzu bo'yicha mustaqil amaliy ishlashni o'rganadi.</p>

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga portret janri haqida ma'lumot berish va tushuncha hosil qilish, hamda portret janri namunalarini badiiy idrok etishni o'rgatish, naturani harakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va uni ifodalay olish kompetensiyalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda portret janri orqali o'z tarixi, o'zligi va shu bilan birga insonning ichki qiyofasini o'rganish qobiliyatini shakllantirish, o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish va milliy, umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda portret janri haqidagi olgan bilimlarini rivojlantirish, shu sohaga tegishli tasvirlarni ishlash va ularga rang berish malakalarini oshirish.

Dars turi: Aralash.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, ko'rsatish, tahlil qilish, amaliy ish, taqdimot.

Dars jihozi: Mavzuga oid reproduksiyalar, bukletlar, slaydlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar.

Dars blok sxemasi:

- I. Tashkiliy qism.
- II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash.
- III. Yangi mavzu bayoni.
- IV. Amaliy ish.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

DARSNING BORISHI.

I. Tashkiliy qism.

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

v) Darsga hozirlik ko'rish. Ish joylarini taxt qilish.


Sinf navbatchi axboroti tinglanadi. Kun yangiliklari haqida suhbat qilinadi.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash.

Avvalgi mavzu "Navro'z" bayramiga kompozitsiya ishlash yuzasidan savol-javob o'tkaziladi:

- "Navro'z" milliy bayrami haqida nimalarni bilasiz?




III. Yangi mavzu bayoni.


Sinf doskasiga yangi mavzu yoziladi: "Tasviriy san'atda portret janri. Portret janri asarlarini badiiy idrok etish."

O'qituvchi: "Portret" – fransuzcha "portrait" so'zidan olingan bo'lib, bir va ikki, yoki bir guruh kishilarning chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portretlar ma'lum sujet asosida maishiy, tarixiy, afsonaviy – mifologik yoki adabiy asar qahramoni obrazida bo'lishi mumkin.

Tasvirning o'ziga xosligiga ko'ra portret:



Portret: yakka, ikkilik va guruhli turlarga bo‘linadi.



O‘quvchilarga mavzu “Tarmoqlash” metodi orqali tushuntiriladi.

O‘qituvchi: Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsning fotosidan, shuningdek, arxiv materiali yoki adabiy tasviridan, ba'zan hatto vafot etgan marhumning bosh chanog‘ini o‘rganish asosida ham yaratiladi.

Portretchi asarning o‘z qahramoni tashqi qiyofasiga o‘xshash bo‘lishiga erishishdan tashqari uning millati, kasbi, tabaqasini xam ifodalashga harakat qiladi. Shuningdek, portretida shaxsning ichki kechinmalari, kayfiyati, ma'naviy dunyosi ham tasvirlanishi kerak.

Dastlabki portretlar qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi VII-V asrlarda yaratilgan. Portret janri O‘rta asrlar Sharq miniatyurachilari va Yevropa rangtasvirchilari va haykaltaroshlari ijodida ham keng rivoj topdi. Bu janrda Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, XVIII-XIX asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I Repin, XX asr o‘zbek rassomlaridan A.Abdullaev, Ch.Ahmarov, V.Kaydalov kabilar samarali ijod qildilar.



**Portretchi rassom Malik
Nabiyev**



Amir Temur portreti

AMIR TEMUR portretini ishlagan Malik Nabiyev bu portretning yaratilish tarixi haqida quyidagilarni hikoya qiladi:

«Shu davr ichida Amir Temur haqida ko'plab asarlar bilan tanishdim. Mavjud miniatyuralarni, qayerda bo'lmasin, imkoniyat darajasida qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron,


Isfaxon, Turkiyaning Istanbul, Ko'nyo, Izmir va boshqa shaharlarida, Angliyaning «Britaniya» muzeyida, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlar muzeylarida saqlanayotgan miniaturlarning asl nusxalarini ko'rishga muyassar bo'ldim.

Ularda Amir Temur turlicha tasvirlangan. Hindistonning Bobur miniatura maktabi, Behzod (Hirot) miniatura maktabi vakillari chizgan Amir Temur qiyofasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Istanbul muzeyidan joy olgan Temur portreti ham butunlay boshqacha...

Xullas, Amir Temur siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatura maktabini o'rganib chiqdim»

Mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga slaydlar namoyishi orqali tushuntiriladi. Bunda o'quvchilar portretchi rassomlar va ularning asarlari bilan tanishadilar.

Abdulhaq Abdullayev ijodi bilan tanishtiriladi va asarlari tahlil qilinadi.



Rassom Abdulhaq Abdullayev



A.Abdullayev. "Alisher Navoiy"
portreti

Portret asarlarini tahlil qilish jarayonida, inson qiyofasini tasvirlashda o'ziga xos tasvirlash qoidalariga e'tiborini qaratadi. Masalan: bosh qismini tana qismiga nisbatan 8/1 qismini tashkil qiladi. Proporsiya, simmetriya, gavda – tana, qo'l, bosh, oyoq nisbatlariga o'quvchilar diqqatini jalb qilinadi.

IV. Amaliy ish.

Amaliy ishda o'quvchilarga avval insonning bosh qismini ishlash bosqichlarini ishlash o'rgatiladi.

Insonlar qiyofasini ishlaganda proporsiya

• Inson tasvirini ishlashda gavdaning proporsional nisbiy tengligidagi o'ziga xoslik;

• Oddiydan murakkabga qarab tasvirlash;

• Odam boshining gavdaga nisbati 8/1;




• Yuz tuzilishidagi: ko'z, quloq, og'iz, burun proporsiyasi;

Katta yosh va kichik yosh odamlar orasidagi farq

O'qituvchi : Bosh shakli go'yo asosiy to'rtta parallel – gorizontalar yuzalar bilan kesishgandek: soch bilan qoplama boshlanish joyi, qosh usti yo'ylaridagi chiziqlar, burun va dahan asoslari. Ana shu yuzalarga perpendikulyar ravishda boshning tuxumsimon shaklida vertical yuzaga kesishadi, u yuza ustida ko'ndalang chiziq hosil qiladi. Bu vertikal yuza uni 2 teng qismga ajratadi, u hosil qilgan profil chiziq esa bosh tashqi ko'rinishini 2 simmetrik yarimga

ajratadi. Gorizontal yuzalar esa boshni qismlarga ajratadi va soch qoplami, qosh usti yoylari, burun va dahan asoslarini hosil qiladi.

Doskada bosh, gavgada oid xomaki, qoralama rasmlar chizib ko'rsatiladi.



O'quvchilarning ishlari parta oralab kuzatiladi, xatolari bo'lsa bartaraf qilinadi.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzu "Taqdimot" metodi orqali mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilar ishlarini taqdim qiladilar. Ularning ishlari tahlil qilinadi. Eng chiroyli va to'g'ri ishlagan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

O'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan test savollari tarqatiladi:

1. Portret so'zi nimani anglatadi ?
 - a) Rasmni to'g'ri chizish.
 - b) Naturaga qarab rasm chizish
 - c) Inson qiyofasining tasviri.
2. Avtoportret - bu :
 - a) O'ziga qarab chizish.
 - b) Do'stining rasmini chizish
 - c) Tabiatni chizish.
3. Mashhur miniatyurachi rassom, "Sharq Rafaeli" tarixiy shaxslar siymolarini yaratgan inson:
 - a) Mahmud Muzahhib.
 - b) Kamoliddin Behzod.
 - c) Chori Ro'ziyev
4. Amir Temur haykali muallifi kim ?
 - a) R. Ahmedov.
 - b) Q. Basharov.
 - c) I. Jabborov

Test topshiriqlari javobi:

1	2	3	4
c	A	b	C

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi. O'quvchilar baholanadi, baholar izohlanadi.

Mavzuga oid atamalar bilan ishlash: Portret, avtoportret, simmetriya, proporsiya. Profil, anfas. (o'quvchilar ish daftarlariga atamalarning ma'nolarini yozib qo'yadilar.)

VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

Amaliy ishni davom ettirib tugallab kelish. Darslikdagi 27 mavzuni o'qib o'rganib kelish, portret janri haqida ma'lumot to'plash.

5- sinf

Dars mavzusi: Rangtasvir va grafikada manzara. Manzara janridagi asarlarni tahlil etish va ijodiy ish.

Texnologik xarita

Mavzu	Rangtasvir va grafikada manzara. Manzara janridagi asarlarni tahlil etish va ijodiy ish
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: O'quvchilarga manzara janri haqida ma'lumot berish va tushuncha hosil qilish, rangtasvir va grafikada manzara ishlashni usullarini o'rgatish va manzara ishlash malakalarini o'stirish, borliqni harakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va uni ifodalay olish kompetensiyalarini shakllantirish</p> <p>Vazifalar: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, o'quvchilar bu janr orqali tabiatga, ona Vatanga bo'lgan muhabbat hissini tasvirlaydilar. Mavzu asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va kengaytirish.</p> <p>Manzara ishlash jarayonida o'quvchilarga ekologik tarbiya berish, ularda tabiatga nisbatan kuzatuvchanlik qobiliyatlarini o'stirib boorish, o'quvchilarda axborot bilan ishlash, milliy va umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirish.</p>

<p style="text-align: center;">O'quv jarayonining mazmuni</p>	<p>O'quvchilarga tasviriy san'atning manzara janri haqida tushuncha berish, borliqdagi tabiat manzaralari, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlaridagi nafasatni ko'ra bilish va ulardan zavqlanishga o'rgatish.</p> <p>-tabiat manzaralaridan narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi va o'lchovlarini to'g'ri aniqlash va ulardan kelajakdagi ijodiy faoliyatlarida foydalanishga o'rgatish.</p>
<p style="text-align: center;">O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p>	<p>Uslub: ma'lumot va hikoya, klaster, test</p> <p>Shakl: aqliy hujum, guruhlarda ishlash</p> <p>Vosita: tarqatma materiallar, slaydlar, fotolar, rag'batlantiruvchi kartochkalar</p> <p>Usul: noan'anaviy</p> <p>Nazorat: og'zaki nazorat, savol va javoblar, o'z-o'zini nazorat qilish</p> <p>Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash</p>
<p style="text-align: center;">Kutiladigan natijalar</p>	<p>O'qituvchi: berilgan vaqt davomida yangi mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tasavvur va xotirasini mustahkamlash.</p> <p>O'quvchi: o'quvchilarga tabiat manzarasini tasvirlash orqali borliqni idrok etishni o'rgatish, ularda ijodkorlik va badiiy didni o'stirish.</p>
<p style="text-align: center;">Kelgusi rejalar</p>	<p>O'qituvchi: yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogik mahoratini oshirish, mavzuni bugungi kungi hayot bilan bog'lash</p> <p>O'quvchi: mavzu bo'yicha mustaqil amaliy ishlashni o'rganadi.</p>

Dars maqsadi ta'limiy maqsad- o'quvchilarga manzara janri haqida ma'lumot berish va tushuncha hosil qilish, rangtasvir va grafikada manzara ishlashni usullarini o'rgatish va tushuncha hosil qilish, borliqni harakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va uni ifodalay olish kompetensiyalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad- o'quvchilarni badiiy va estetik ruhda tarbiyalash, ularda vatanparvarlik xislatlarini tarkib topdirishni davom ettirish. O'quvchilar e'tiborini tabiatga nisbatan mehr- muhabbatni oshirish, ularni asrab- avaylashga yo'naltirish, o'quvchilarda axborot bilan ishlash, milliy va umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad- o'quvchilarni rangtasvir va grafikada manzara ishlash malakalarini rivojlantirish, rassomchilik san'atiga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish.

Dars turi: Aralash.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, ko'rsatish, tahlil qilish, amaliy ish.
Dars jihozi: Mavzuga oid rasmlar, bukletlar, slaydlar, o'quvchilar ishlaridan namunalalar.

Dars blok sxemasi:

- I. Tashkiliy qism.
- II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash.
- III. Yangi mavzu bayoni.
- IV. Amaliy ish.
- V. Yangi mavzuni mustahkamlash.
- VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism.

- a) Salomlashish.
- b) Davomatni aniqlash.
- v) Darsga hozirlik ko'rish. Ish joylarini taxt qilish.

Sinf navbatchi axboroti tinglanadi. Kun yangiliklari haqida suhbat qilinadi.
Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash.

Avvalgi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

- rangning asosiy hususiyatlari nimalar?
- iliq va sovuq ranglarning nomini ayting.
- spektr ranglar nechta va ularning nomlarini ayting?
- asosiy ranglarga qaysi ranglar kiradi?
- rangtusi nima?
- rangning to'yinganligini qanday tushunasiz?

Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Doskaga yangi mavzu yoziladi.

“Rangtasvir va grafikada manzara. Manzara janridagi asarlarni tahlil etish va ijodiy ish.”

Grafika san'atiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli badiiy suratlar, etiketkalar, turli xildagi markalar kiradi. Grafika san'ati, asosan, turli uzunlik va qalinlikdagi chiziqlar yoki oq-qora bo'yoqlar yordamida aks ettiriladi. Grafika san'ati asarlari hajmi j hatidan uncha katta bo'lmay, ko'p hollarda qog'ozga ishlanadi.

Grafika to'rt turga: dastgoh grafika, gazeta-jurnal grafikasi, plakat va amaliy grafikaga ajraladi.

Telman Yaminovich Muhamedov **kitob bezovchi rassom** sifatida miniatyura janridagi ko'p ko'rinishlilik xususiyatlarini «O'zbek xalq ertaklari»ga chizgan suratlarida ko'rish mumkin. Mana shu ishlangan suratlar musavvirga katta shuhrat keltirgan.

Musavvir xalq ertaklarida sharqona hayot tarzini, manzarasini, binolari, liboslari va muhitni yengil chiziqalarda, rang o'yinlari va bezakdorligi orqali gavidalantiradi.

Dastgohli grafik asarlarni maxsus asboblarda, molbertlarda qalam, ko'mir, tush, akvarel, tempera, guashlarda ishlanadi. Bu san'at asarlari ham portret, natyurmort, manzara janrlarida yaratiladi.

O'rol Tansiqboyev O'rta Osiyoda manzara janriga asos solgan, uning har bir davridagi ijodi o'ziga xos klassik tasviriy san'at tarixiga aylangan. Vaqt o'tgan sayin bu san'atkor yaratgan nodir asarlarning qadr-qimmati oshib bormoqda. **Manzara san'atining** O'zbekistonda shakllanishi va cho'qqiga ko'tarilishida, shubhasiz, bu san'atkor erishgan daraja shu kunda ham ibrat namunalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Plakat ustasi N. Ten o'z asarlarida turmush va ekologik mavzuni yoritadi. Uning asarlaridagi fikrni hech bir muammosiz, yaqqol anglash mumkin. Bunga misol tariqasida «Orol» manzarasi muammosiga bag'ishlangan plakati dalildir. Tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini, hayvonot olamini asrash bugungi kunda muhim, dolzarb muammoga aylangan.

Manzara - peyzaj ma'lum bir joyning ko'rinishi, tasviri bu tasviriy san'at janri hisoblanadi. Manzarada tabiat, dengiz ko'rinishlari (marina), daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg'ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi. Manzara O'rta asrlarda Xitoy, Yaponiya, Uyg'onish davrida esa Yevropada rivoj topdi. O'zbekistonda O'.Tansiqboyev manzara janridagi jozibador asarlari bilan mashhur.

Rassom N.G. Karaxan chizgan tabiat manzaralari dekorativligi, ranglarning sharqqa xos jilvali va yorqinligi bilan ajralib turadi. Manzarachi rassomlar O'rol Tansiqboyev, Nikolay Karaxanlarning tabiat, hayot go'zalliklarini madh etuvchi asarlari markazida shoirona his-tuyg'ular bilan to'la nurlar orqali kartinalar jonlangan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, mohir pedagog P. P. Benkov o'z asarlari bilan o'zbek tasviriy san'atiga salmoqli hissa qo'shgan rassom.

Pavel Petrovich Benkov serquyosh, serfayz o'lkamizni sevib qolgan va umrining oxirigacha shu yerda qolib ijod qildi. U yaratgan suratlarning har birida jonajon respublikamizning go'zal tabiati, o'zbek xalqining hayoti va mehnati tasvirlanadi.

O'zbekistonning go'zal tabiati taniqli rassom O'rol Tansiqboyevning ijodida markaziy o'rinni egallaydi. O'. Tansiqboyevning ijodi, asosan, O'rta Osiyoning go'zal va nafis tabiat manzaralarini mo'yqalam yordamida haqqoniy aks ettirishga qaratilgan. Uning «Issiqko'l oqshomi», «O'zbekistonda bahor», «Qayroqqum GESining tongi», «O'rik gullamoqda», «Kuz tongi» kabi ko'plab asarlari rassomning manzaranafislik san'atining mohir ustasi sifatida jahonga tanitdi. O'rol Tansiqboyevning «Oqshom pallasi» asarini tahlil qilsak, tomoshabinning ko'z o'ngida gullab-yashnayotgan o'zbek diyori, uning dilga orom beruvchi tabiati,

kishining mehnati bilan bog' - bo'stonga aylanayotgan yerlar gavidalanadi.





Manzarachi rassom O'rol
Tansiqboyev



O'rol Tansiqboyev "Jonajon o'lka"
asari

Perspektiva qonuni- manzara chizganda rejani to'g'ri tasvirlay bilish, eng yaqindagi narsalar birinchi reja, o'rtadagi narsalar o'rta reja, uzoqdagi narsalar orqa reja ekanligini, narsalar uzoqlashganda o'lchovi kichiklashib borishini nazarda tutish muhim ahamiyatga ega.



IV. Amaliy ish.


Amaliy ishda o'quvchilar manzara ishlash qoidalariga amal qilgan holda grafikada manzara ishlaydilar. Ularning ishlari parta oralab tekshiriladi, xatolari bo'lsa bartaraf qilinadi.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzu "Tahlil qilish" metodi orqali mustahkamlanadi. O'quvchilarning ishlari tahlil qilinadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Duskada taqdimot orqali o'quvchilar ishlari tahlil qilinadi. Grafikada eng chiroyli manzara ishlagan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Umumlashtirish uchun:

Manzara ishlash uchun qanday bilimlarga ega bo'lishimiz zarur?



Demak, manzara ishlashimiz uchun:

1. avvalo borliqni ko'ra bilishimiz kerak;
2. manzara eskizini chiza bilishimiz kerak;
3. Manzara chizishda perspektiva qonuniyatiga amal qilmog'imiz kerak;
4. Manzarani bo'yash uchun rang koloritini bilishimiz kerak;
5. Shu bilan birga rang perspektivasi qonunlariga amal qilishimiz lozim.

Yuqoridagi qoidalarga amal qilib manzara ishlasak, albatta chiroyli asar ishlagan bo'lamiz.

Mavzuga oid atamalar bilan ishlash: manzara, eskiz, havo perspektivasi, rang perspektivasi.

O'quvchilar baholanadi, baholar izohlanadi. Dars umumlashtiriladi.

VI. Uyga vazifa: Rangtasvirda manzara ishlash, darslikdagi 10-mavzuni o'qib o'rganish.

7-sinf

Texnologik xarita

Mavzu	O'zbekiston kitobat san'ati
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: o'quvchilarga kitobat san'ati tarixi haqida ma'lumot berib, kitob grafikasi va ularning turlari haqida o'quvchilarga tushuncha berish, o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish</p> <p>Vazifalar: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, o'quvchilarning badiiy fikr doirasini kengaytirish, kitobat san'ati bilan tanishtirish.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	<p>O'quvchilarga Kitobat san'ati tarixi haqida ma'lumot berish, kitobat san'atining turli badiiy grafik elementlari bilan tanishish, grafik asarlari misolida o'quvchilarni badiiy va estetik ruhda tarbiyalash.</p>

<p style="text-align: center;">O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p>	<p>Uslub: yangi ma'lumot Shakl: aqliy hujum, guruhlarda ishlash Vosita: slaydlar, fotolar, rag'batlantiruvchi kartochkalar Usul: noan'anaviy Nazorat: og'zaki nazorat, savol va javoblar, o'z-o'zini nazorat qilish Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash</p>
<p style="text-align: center;">Kutiladigan natijalar</p>	<p>O'qituvchi: berilgan vaqt davomida yangi mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tasavvur va xotirasini mustahkamlash. O'quvchi: o'quvchilarga kitob yaratilish bosqishlarini o'rganish, ularda ijodkorlik va badiiy didni o'stirish.</p>
<p style="text-align: center;">Kelgusi rejalar</p>	<p>O'qituvchi: yangi pedagogik texnologiyalardan va AKT texnologiyalardan foydalanish, pedagogik mahoratini oshirish, mavzuni bugungi kungi hayot bilan bog'lash O'quvchi: mavzu bo'yicha mustaqil amaliy ishlashni o'rganadi.</p>

Dars mavzusi: "O'zbekiston kitobat san'ati."

Dars maqsadi:

I. Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga kitobat san'ati tarixi va uning turli badiiy-grafik bezaklari elementlari haqida tushuncha berish hamda namunalarini o'rganish va tahlil qilish, tasviriy san'at faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish kompetensiyalarini shakllantirish.

II. Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda kitobga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg'usini o'stirish, insoniyat tarixida kitobning o'ziga xos tutgan o'rnini tushuntirib berish, o'quvchilarda kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish. Sog'lom e'tiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish.

III. Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda kitobat san'ati haqida olgan bilimlarini rivojlantirish, shaxs sifatida doimiy ravishda o'zini-o'zi rivojlantirish.

Dars turi: Aralash.

Dars metodi: Suhbat, amaliy ish.

Dars jihozi:

O'qituvchi uchun-

Turli xil kitob namunalari rasmlari va kitob uchun ishlangan illustratsiyalar, slaydlar, proyektor.

O'quvchi uchun-

Rasm daftari, lug'at daftari, oq qog'oz, qalam turlari, mo'yqalam turlari, o'chirg'ich, akvarel bo'yoqlari, suv idish, kundalik daftar.

Dars blok sxemasi:

I. Tashkiliy qism- 3 daqiqa

- II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash- 5 daqiqa
- III. Yangi mavzu bayoni- 20 daqiqa
- IV. Amaliy ish- 10 daqiqa
- V. Yangi mavzuni mustahkamlash- 4 daqiqa
- VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash- 3 daqiqa

DARSNING BORISHI.

I. Tashkiliy qism.

- a) Salomlashish.
- b) Davomatni aniqlash.
- v) Darsga hozirlik ko'rish, ish joylarini taxt qilish.

Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchi axboroti tinglanadi. Kun yangiliklari: maktabimizda o'tadigan "Kitob marafoni" haqida suhbat qilinadi.

II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash. O'tgan chorakda o'tgan mavzular yuzasidan savol-javob o'tkaziladi: dizayn va me'morchilik san'ati haqida olgan bilimlarini suhbat tarzida takrorlab olinadi.

III. Yangi mavzu. Kitobat san'ati. KITOBOB – nima? Kitob bilim manbai. Kitob insonni shaxs bo'lib etishiga katta hissa qo'shadigan buymdir.

O'quvchilarni fikrlashga o'rgatish maqsadida muammo yaratamiz.

- Hurmatli o'quvchilar. Siz kitob rastasi oldidasiz. Birinchi navbatda sizni qiziqishingiz qaysi kitobda to'xtadi?

- Rangi va tasviri qiziqirdi.
- Nima uchun shunday bo'ldi?
- Chunki inson birinchi navbatda dunyoni ko'zlari bilan qabul qiladi.
- Ko'zingizga chiroyli va nazaringizda qiziqarli bo'lib ko'ringan kitobni

qo'lingizga oldingiz. Endi nimasiga qaraysiz.

- Varaqlab, qiziqarli tasvirlarga, illyustratsiyalarga qaraymiz.

Ilyustratsiyalarga qarab asar mazmuni haqida qisqacha ma'lumot olamiz.

- Kitobdagi rasmlarni, muqovani, sifatini ko'rib so'ng narhini so'rab bilamiz.

- Demak, ko'rib turganingizdek asar muallifining mehnati o'quvchiga taqdim etish uchun faqatgina asarning o'zi emas, balki kitobning bezagi ham katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rdingiz.

Endi aziz o'quvchilar kitobat sanati tarixi bilan tanishib chiqamiz va bu jarayonda albatta sizga notanish bo'lgan so'zlarni lug'at daftariga yozib oling, so'ng izohini yozamiz.

Multimedia yordamida biz siz bilan tarixga nazar tashlaymiz: Ibtidoa davrida odamlar fikrlarini rasmlar orqali izohlashgan. Arxiologlarning izlanish ishlari yordamida Qadimgi Vavilon davlatida loy taxtakashlarga ishlangan yozuvlar topilgan. Bunday taxtakashlar nimasi bilan qulay va qaysi jihatlari bilan noqulay? (*O'quvchilarning fikrlarini tinglab, so'ng umumlashtiramiz*). Qadimgi yunonlar va rimliklar qog'oz paydo bo'lguncha ancha davrgacha papirusdan yasalgan uzun "Svitok"lardan foydalanishgan. Qadimgi misrliklar rangli tasvir – shakllar "Erogliflar" bilan "Svitok"lar tayyorlashgan. Hozirgi davrda dunyoning mashhur muzeylarina bunday svitoklar saqlanib kelmoqda. Odamlar bunday svitoklardan uzoq davr, yani qog'oz yaratilguncha foydalanishgan.

- Ana endiyana bir oz fikrlangchi. Bunday ma'lumotlar manbai qay jixatlari bilan qulay yoki noqulay bo'lgan? (*O'quvchilarning fikrlarini tinglab, so'ng umumlashtiramiz*).

- Yana qanday xomashyolardan foydalanib kitob yaratishgan?

- Jonivorlarning terilariga.

- Teridan ishlangan qaysi kitoblarni bilasiz?

- AVESTO. Zardo'shtiylik madaniyati davrida yaratilgan muqaddas kitobidir.

Bu kitob eramizdan oldin VII asrning oxiri VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan 21 kitobdan iborat bo'lgan. Bizgacha bu kitoblardan 5 tasi etib kelgan.

Qog'oz qachon va qayerda yaratilgan? Birinchi bo'lib qog'oz II asrda Xitoyda yaratilgan. Evropada qog'oz XII asrdagina ishlab chiqara bishlashgan. Kitobat san'ati aynan XI-XV asrlarda, yani Uyg'onish davrida rivojlandi. Har bir qirollikda yoki podsholikda kutubxonalar mavjud bo'lib. U erda xattotlar har bir varrog', har bir kitob ustida yillab ish olib borishar edi.

Ksilografiya – yunonchadan taxtaga ishlangan gravyura (XIV-XVaa.) Tasvirga qarab **Ksilografiya** qanday tayyorlanadi va qanday foydasi bor. Ko'p nusha yaratish mumkin.

Litera yunonchadan yogoch g'o'lacha ma'nosini bilduradi. (*XVasr*). Bu usul haqida o'quvchilarning fikrini tjnlaymiz va umumlasjtiramiz. Yani litera – kichik xajmli yog'och g'o'lachalarning bir tomoniga bittadan xarfning aks holatdagi shakli bo'rtma shakli ishlanadi. So'z va gaplar terib chiqib madzu qog'ozga bosib chiqiladi. Bu usul XV asrda Germaniyada kashf qilingan. Rossiyada birinchi kitob "Apostol" kitobi 1564 yilda Ivan Fyodorov tomonidan yaratilgan kitob bosib chiqarish stanogida yaratildi. O'rta Osiyoda kitobning yaratilishi juda katta tarixga ega. Kitob yaratishda nimiatyura san'ati bilan bog'liqligini Biz 6-sinfda miniatyura san'atini o'rganganimiz. Kitobat san'atining keng rivojlanishiga mashhur rassomlar Kamollidin Behzod, Mahmud Muzahhib, XX asr zamonaviy rassomlardan Jskandar Ikromov, Chingiz Axmarov, Telman Muxamedovlar katta hissa qo'shishgan. Kitob muqovasining yaratilishi XVIII asrlarga kelib taqalgan. Muqova kitobning umrini uzaytirish maqsadida yaratildi. Muqovalar qimmat baho mato, metall, toshlar bilan badiiy did bilan ishlangan. Xozirgi davrda kitob yaratish tez va qulay kompyuter texnikalaridan foyadalaniladi.

IV. Amaliy ish. Kitob yaratishda badiiy did bilan bezatish katta ahamiyatga ega. Bugun siz bolan BOSH HARF (bukvitsa)ning eskizini yaratamiz. Barchamiz o'z ismimizning bosh harfini yozisha quyidagi namunalardan foydalanib bezak beramiz.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash. Yaxshi ishlangan ishlar namoish qilinadi. Bugungi darsda qanday yangi ma'lumotlarga ega bo'dingiz. Kitob nima uchun aziz deyiladi? Kelgusida siz kitobga nisbatan o'z dunyoqarashingiz qaysi tomonga o'zgartirasiz? Darsliklar ham huddi shunday yaratiladi va siz ularni ehtiyotlab, ezozlashingiz kerakligi haqida savol-javob o'tkaziladi.

VI. Uyga vazifa. Biror bir asarga muqova nushasining homaki rasm chizib kelish. Shuning bilan bugungi darsimiz tugadi. Ko'rishguncha hayr.

7-SINF

Mavzu	Kitobat san'atining turli badiiy-grafik elementlarini bajarish.
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: o'quvchilarga "O'zbekiston kitobat san'ati" tarixi haqida ma'lumot berib. Kitob grafikasi va ularning turlari haqida o'quvchilarga tushuncha berish. o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, tasviriy san'at faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish kompetensiyalarini shakllantirish</p> <p>Vazifalar: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, o'quvchilarning badiiy fikr doirasini kengaytirish, kitobdagi illyustratsiyalarni o'qiy olishga o'rgatish; grafik rassomlar va ularning ayrim asarlari bilan tanishtirish, o'quvchilarda kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	O'quvchilarga kitob grafikasi haqida ma'lumot berish, kitobat san'atining turli badiiy grafik elementlarini bajarish usullarini o'rgatish, grafik asarlari misolida o'quvchilarni badiiy va estetik ruhda tarbiyalash.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub: ma'lumot va hikoya, klaster, test</p> <p>Shakl: aqliy hujum, guruhlarda ishlash</p> <p>Vosita: tarqatma materiallar, slaydlar, fotolar, rag'batlantiruvchi kartochkalar</p> <p>Usul: noan'anaviy</p> <p>Nazorat: og'zaki nazorat, savol va javoblar, o'z-o'zini nazorat qilish</p> <p>Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash</p>
Kutiladigan natijalar	<p>O'qituvchi: berilgan vaqt davomida yangi mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tasavvur va xotirasini mustahkamlash.</p> <p>O'quvchi: o'quvchilarga kitob yaratilish bosqishlarini o'rganish, ularda ijodkorlik va badiiy didni o'stirish.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O'qituvchi: yangi pedagogik texnologiyalardan va AKT texnologiyalardan foydalanish, pedagogik mahoratini oshirish, mavzuni bugungi kungi hayot bilan bog'lash</p> <p>O'quvchi: mavzu bo'yicha mustaqil amaliy ishlashni o'rganadi.</p>

Dars mavzusi: "Kitobat san'atining turli badiiy-grafik elementlarini bajarish"

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga kitob grafikasi san'ati va uning turli badiiy-grafik bezaklari elementlari haqida tushuncha berish hamda namunalarini o'rganish va tahlil qilish, tasviriy san'at faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish kompetensiyalarini shakllantirish

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda kitobga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg‘usini o‘stirish, insoniyat tarixida kitobning o‘ziga xos tutgan o‘rmini tushuntirib berish, o‘quvchilarda kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda kitob grafikasi elementlari haqida olgan bilimlarini rivojlantirish, shu sohaga tegishli tasvirlarni ishlash va ularga rang berish malakalarini oshirish.

Dars turi: Aralash.

Dars metodi: Suhbat, amaliy ish.

O‘qituvchi uchun-Turli xil kitob namunalari rasmlari va kitob uchun ishlangan illustratsiyalar, slaydlar, proyektor.

O‘quvchi uchun-Rasm daftari, oq qog‘oz, qalam turlari, mo‘yqalam turlari, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yoqlari, suv idish, kundalik daftar.

Dars blok sxemasi:

I. Tashkiliy qism- 3 daqiqa

II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash- 5 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni- 10 daqiqa

IV. Amaliy ish- 18 daqiqa

V. Yangi mavzuni mustahkamlash- 6 daqiqa

VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash- 3 daqiqa

DARSNING BORISHI.

I. Tashkiliy qism.

a) Salomlashish.


b) Davomatni aniqlash.

v) Darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini taxt qilish.

Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchi axboroti tinglanadi. Kun yangiliklari haqida suhbat qilinadi ma’naviyat daqiqasi o‘tkaziladi. Bunda aprel oyida bo‘lib o‘tgan “Kitob marafoni” tadbiri haqida suhbat qilinadi.

II. Avvalgi mavzuni mustahkamlash.

Avvalgi dars mavzusi “ O‘zbekiston kitobat san’ati” haqida suhbat darsi moychechak metodi orqali mustahkamlanadi. Bunda guruhlariga savollar beriladi, guruh o‘quvchilari o‘z javoblarini moychechak yaproqlariga yozib sinf taxtasiga yopishtiradilar.



Guruhlarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

O'qituvchi stolida bir necha kitob qoyiladi: darslik, ilmiy kitob, badiiy kitoblardan 4-6 yoshga mo'lg'allangan ertak kitob, roman va hikoyalar to'plami kitoblari. Guruhlar bittadan kitobni tanlab olishadi va bu kitoblar qanday bezatilgan? Nima uchun shunday bezatilgan, yozma shrift o'lchami haqida ma'lumot berishadi.

1-guruh. Darslik – ma'lim fanga bag'ishlangan, ilmiy ma'lumotlarga asoslangan, mavzular yoritilgan va fazifalar berilgan kitob. Uning bezatilishi ham odmiy, illyustratsiyalari ham fanga oid beriladi.

2-guruh. Ilmiy kitob – aniq biror bir fanga bag'ishlangan bo'lib, fan yangiliklari, nazariy va amaliy ishlar nazariyasi yoritiladi. Bu kitob katta yoshdagilarga mo'ljallangan bo'lib, shriftlar mayda o'lchamda bo'ladi.

3-guruh. 4-6 yoshga mo'lg'allangan ertak kitob – badiiy kitob bo'lib, katta xajmli format qog'ozdan ishlanadi. Bolaning yoshini inobatga olgan holda kitob shrift katta o'lchamli, rangli illyustratsiyalar bilan boyitiladi.

4-guruh. Roman – kattalar uchun mo'ljallangan badiiy kitob bo'lib, unda yozuvlar mayda shrift bilan yoziladi. Illyustratsiyalar ham deyarli yoq.

-Nima uchun shrift turlicha, illyustratsiyalar ham turlicha. Siz kitob rastasiga borganingizda nimasiga etibor berasiz va qanday kitob harid qilgan bo'lar edingiz kabi savol va javoblar bilan o'quvchilarning fikrlarini umumlashtiramiz.

Kitob grafikasi- kitoblarga badiiy bezak berish san'atidir. Kitoblar o'zining mazmuni va mohiyatiga ko'ra darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ilmiy ommabop kitoblar, lug'atlar va ensiropediyalar, badiiy adabiyotlarga bo'linadi va mazmun – mohiyati asosida bezatiladi. Shu bois ishlangan bezaklar ham bir-biridan farq qiladi. Kitob grafikasi san'atining imkoniyatlari adabiy asarlarni badiiy bezashda to'la-to'kis namoyon bo'ladi.

Guruhlarning javoblari tinglanadi. Baxs-munozara o'tkaziladi. Slayd namoyishi orqali berilgan savollarning javoblari tekshiriladi. Bunda o'quvchilar bergan javoblarini tekshirib oladilar.

Guruhlarga rag'bat kartochkalari beriladi.

Mavzu umumlashtiriladi: Kitob qadimdan eng noyob durdona hisoblanadi. Chunki kitob - millatning madaniy me'rosidir. Kitob mutoalasi esa inson faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Kitob doim bizni fikrlashga, halol yashashga, Vatanni sevish, jamiyat taraqqiyotiga hizmat qilish va ma'naviy me'rosimizni asrashga, ezgulikka chorlab kelgan.

Bugun biz kitobning tuzilishi va undagi bezaklar, harflar, asarlarning ma'nosini yorituvchi illyustratsiyalar haqida suhbatlashamiz.

III. Yangi mavzu bayoni.

-XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda I.Ikromov, V.Kedrin, M.Reyx, A.Osheyko, Q.Basharov, I.Kiriakidi, T.Muhamedov kabi ko'plab kitob bezagi ustalari yetishib chiqqan. Ular kitob bezagi san'atining milliy, badiiy an'alarini davom ettirib, katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Kitobning tuzilishi:

1.Kitob muqova jildi (supermuqova),

2. Muqova
3. Forzats
4. Titul varag‘i
5. Boshbezak
6. Zarhal harf (bosh harf)
7. Illyustratsiya
8. Yakuniy bezak

kabilardan tashkil topadi. She'riy kitoblarda satrlar orasida naqshiy bezaklar tasvirlanishi ham mumkin.

Supermuqova - ayrim kitoblardagina bo‘ladi. U oddiy shriftli, badiiy bezakli, naqshinkor, foto bezakli bo‘lishi mumkin. Uning asosiy vazifasi kitob haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun kerakli ma‘lumot berish hamda kitob muqovasini himoya qilishdan iborat.

Muqova - kitob haqidagi umumiy ma‘lumotni shriftli va bezakli kompozitsiyalar ifodalaydi.

Forzats- nemischa “ikki sahifali qog‘oz” ma’nosini bildiradi. Forzats kitob bloke bilan muqovaning ichki tomoniga yelimlanadigan qog‘ozdan iborat. U tasvirsiz oq, biror bir sidirg‘a rangli, naqshinkor, sujetli va kitobning asosiy mazmunini anglatuvchi so‘zlar joylashtirilga bo‘lishi mumkin.

Titul varag‘i - kitobning titul varrag‘i uning “nasabi” ni bildiradi. “Titul”- lotincha so‘z bo‘lib, feodal va burjuaziya davrida yuqori mansabli kishilarga beriladigan unvon, nasabni anglatadi. Kitobning titul varag‘ida muallifning familiyasi, kitobning nomi, nashr etilgan joyi, yili, nashriyot nomi yoziladi. Ayrim hollarda bu harfli kompozitsiya mo‘jaz tasvir yoki naqshli bezak bilan ham to‘ldiriladi. Agar titul varrag‘idagi yozuvlar uning chap tomonidagi varag‘iga ham joylashtirilsa, bu bet **konrtitul** deb ataladi.

Kitob birinchi betining yuqori qismi badiiy bezatiladi. Bu bezak naqsh yoki mazmunli tasvirdan (shunchaki narsalar tasviri bo‘lishi ham mumkin) iborat bo‘ladi. Uni **bosh bezak** deb yuritiladi. Ular katta-kichikligi jihatidan turlicha bo‘lib, muvaffaqiyatli tasvirlangan taqdirda mazkur kitob bobini, ba'zan butun kitob mazmunini o‘zida aks ettirishi mumkin.

Shu bilan birga **bosh bezak** bu betni badiiy bezatish vazifasini ham o‘taydi. Boshbezak haqida gap borganda uning kitobdagi o‘rni, o‘lchovi, rangi, shakli, tasvir unsurlari haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Ularni tushuntirishda ertak, hikoya, she'r, doston, masal, roman kabi kitob bezaklaridan foydalaniladi.

Zarhal xarf kitobning matnini har bir bob yoki paragrafining birinchi harfi xisoblanadi va u yirik holda ishlanadi, naqsh va turli real tasvirlar bilan bezatilgan bo‘ladi. Zarhal harflar ko‘pincha bolalar ertaklarida va she'riy kitoblarda ko‘p qo‘llaniladi. Zarhal harf namunalari turli kitoblardan, shuningdek, o‘qituvchining o‘zi tayyorlagan ko‘rgazmali quroli orqali ko‘rsatiladi.

Illyustratsiya - lotincha so‘z bo‘lib, aniqlashtirmoq, ravshanlashtirmoq degan ma‘noni bildiradi. Illyustratsiya - bu asar ma‘nosini yoritib beruvchi rasm. Shuning uchun ham tasviriy san‘at darslarida turli janrdagi adabiy asarlarga illyustratsiya ishlashga ko‘proq e‘tibor beriladi. Kitobat san‘ati tarixidan shu narsa

ma'lumki, bir asarga bir nechta rassom turli yillarda qayta-qayta murojaat etib, har safar o'ziga xos yangilik kiritishi mumkin.

Yakuniy bezak - kitobning badiiy-grafik elementlari ichida eng mas'uliyatlisi muqaddima tasvir (zastavka) va xotima tasvir (konsovka)dir. Chunki ular kitobning bir bobini, ayrim xollarda, umuman, kitobning boshlanishi va yakunlanishida uning mazmunini to'liq ochib berishi lozim. Bu elementlar sujetli, naqshinkor yoki aralash bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni slayd namoyishida kitobning tuzilishi, elementlaridan namunalari ko'rsatiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov asarlari kitobi, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlari kitobi namunalari ko'rsatiladi va mazmuni tushuntiriladi. Shu bilan birga Bosh kitobimiz "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi" haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilarga slayd namoyishi orqali kitob grafikasi rassomlari haqida ma'lumot beriladi va ijodlaridan namunalari ko'rsatiladi.

Iskandar Ikromov (1904-1972) o'z ijodiy faoliyatida Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Hamid Olimjon, Oybek kabi allomalarning asarlariga badiiy ishlov bergan. 1959 yilda Alisher Navoiyning "Lirika" siga ishlagan badiiy bezaklari uchun Germaniyaning Leypsig shahrida o'tkazilgan xalqaro kitob ko'rgazmasida bronza medaliga sazovor bo'lgan. Rassom ijodining ahamiyatli tomoni shundaki, u sharq kitobat san'atiga qadimiy tarixiy an'alarini tiklash va rivojlantirish, unda milliy naqsh elementlarini zamonaviy kitobat san'atida qo'llash va umuman, XX asr milliy kitobat san'atining shakllanishida ibratli ijod namunalari namoyon etdi.

Telman Muhamedov (1934-1976) kitob bezovchi rassom sifatida ko'plab kitoblarni badiiy bezadi. Yumorga boy karikaturalari "Mushtum" jurnalida muntazam ravishda e'lon qilib borilgan. 1974-yilda Butunittifoq Xalq Xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining bronza medaliga sazovor bo'lgan. 1968-yilda Rassomlar uyushmasining a'zoligiga qabul qilingan. O'zbek xalq ertaklari, Afandi latifalari, Gafur Gulomning "Shum bola", Mirmuhsinning "Me'mor" asarlariga ishlagan illyustratsiyalarida rassomning iqtidori yaqqol namoyon bo'lgan. Ularda chuqur yumoristik ruh bilan sug'orilgan kompozitsiyalar, nozik istehzoli kayfiyat nafis chiziqlarda mohirlik bilan tasvirlangan. Telman Muhamedovning ijodi misolida Sharq miniatyura san'ati namunalari xos chiziqlar nafisligi, mazmundorligini o'zgacha talqinda ko'rishimiz mumkin.

Anatoliy Bobrov (1948 yilda tug'ilgan) bezagan kitoblar respublika, respublikalararo va xalqaro konkursning diplomlari bilan taqdirlangan. Bezaklarning asl nusxalari O'zbekiston Davlat san'at muzeyida, O'zbekiston Badiiy akademiyasi ko'rgazmalar direksiyasining fondida saqlanmoqda. A. Bobrov M.R. Dayoning "Indaneziya ertaklari va afsonalari", qoraqalpoq eposi "Shahriyor", hind qahramonlik eposi "Ramayana", Hamid Olimjonning "Semurg" sovg'a nashri, Asqad Muxtorning "Qo'l izi" she'rlar to'plami, Muhammad Alining "Boqiy dunyo" she'riy romanining o'zbekcha hamda ruscha nashri, A.S. Pushkinning "Baliqchi va oltin baliq haqida ertak" kitobi, Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigullik kun" va "Qiyomat" asarlari, qirg'iz eposi "Manas"

va boshqa ko‘plab kitoblarni badiiy bezadi. Bobrov bezagan har bir kitob o‘z qiyofasiga ega. Badiiy asosga chuqur kirishish umuman Bobrovga xos xususiyatdir. Anatoliy Bobrov O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi a‘zosi.

IV. Amaliy ish.

Amaliy ishda har bir guruhga ertak uchun kitobning ustki muqovasini bezash beriladi. Guruhda ishni taqsimlashda qobiliyatini inobatga olgan holda asosiy yozuv, asr mazmunini yoritib beruvchi tasvir hamda fon ishlash yuklatiladi. (Bu jarayonda o‘quvchilarda kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantiriladi.) Amaliy ish jarayonida mayin musiqa ohangi qo‘yiladi. Musiqa ‘quvchilarga yanada zavq bag‘ishlaydi. Amaliy ish jarayonida o‘quvchilarning uy vazifalari baholanadi.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

- Kitoblar qanday qismlardan tashkil topadi?
- Kitob badiiy bezagining qaysi bo‘laklarini bilasiz?
- Kitob grafikasi sohasida ijod etgan rassomlardan kimlarni bilasiz?
- Illyustratsiya nima?

Guruhlarning javoblari tinglanadi, amaliy ishlari “Tahlil” metodi orqali tahlil qilinadi. Barcha javoblar umumlashtiriladi. Guruhlar baholanadi va rag‘batlantiriladi. Dars umumlashtiriladi.

VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

Uyga sinfda ishlangan kitob bezaklariga o‘xshash ijodiy yondashgan holda boshqa kompozitsiya, boshqa unsurlardan kitob bezak ishlarini bajarish.

Yuqorida tanishib chiqqan rassomlardan birortasini tanlab, shu rassomning ijodidan ma‘lumot yig‘ib prezentatsiya tayyorlash. (Bunday ijodiy ishlar keyingi darsda namoish qilinishi eslatiladi).

JISMONIY TARBIYA FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

Mavzu: “O‘tirib g‘ujanak bo‘lish, yon tomonlarga dumalash va oldiga, orqaga umboloq oshish”ni o‘rgatish.

Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar:

Bu yoshdagi o‘quvchilarga akrobatika mashqlaridan umboloq oshishni o‘rgatishda asta sekinlik bilan mashg‘ulotlarni olib borish lozim. Ularning suyaklari va bo‘g‘inlari hali mo‘rt bo‘lgani uchun sal nojo‘ya harakat oqibatida tan jarohati olishi mumkin.

G‘ujanak bo‘lish. G‘ujanak bo‘lishni bajarishda gavdaning barcha bo‘g‘inlarni oldinga maksimal darajada bukiladi. Bunda tizzalar yonga ozgina ochilgan bo‘lib, engak ko‘krakka qattiq tiralidi; qo‘llar bukilgan holda oyoq boldirlari o‘rtasidan ushlangan holatda turiladi.




G‘ujanak bo‘lib orqaga, oldinga dumalash. Orqaga dumalashni bajarish uchun cho‘qqayib o‘tirgan holatda g‘ujanak bo‘lib bajariladi. Bunda tizzalar bukib

o'tiriladi. Tovonlar bir oz kengroq qo'yilib, qo'llar bilan boldirning tashqi qismlari ushlanadi va oyoqlar ko'krakka tortiladi. Ana shu holatda ohista boshdan oshib o'tmasdan (koptokka o'xshab) tana qismlari, yani bel, bo'yin qismlari ketma-ket tegadi hamda dastlabki holatga qaytiladi.



Oldinga umboloq oshish. Cho'qqayib otirgan holatda qo'llar kaftini gimnastika matiga qo'yiladi. Bunda oraliq masofa 40-50 sm bo'lishi mumkin. Gavdani og'irligini qo'llarga o'tkazib, oyoqqa turiladi. Bosh orqaga aylanib yumshoqina gimnastika matiga bo'yinni, kurakni tekkaziladi. Kurakni gimnastika matiga tegishi bilan tezda g'ujanak holatiga o'tib, dastlabki holatiga o'tiladi.



Mashg'ulot bosqichlari

Mavzu : Akrobatika mashqlari. "O'tirib g'ujanak bo'lish, yon tomonlarga dumalash va oldiga, orqaga umboloq oshish"ni o'rgatish.

Maqsad: O'quvchilarga akrobatika elementlarini o'rgatish bilan birga jismoniy sifatlardan egiluvchanlik, kuch va ephillik jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Vazifalar:

1. **Ta'limiy:** Akrobatika mashqlarini bajarishda jismoniy sifatlarni shakllantiruvchi mashqlarni to'g'ri bajarishni o'rgatish.

2. **Tarbiyaviy:** Mashg'ulot jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish hamda mashqlarni to'g'ri bajarish.

3. **Sog'lomlashtiruvchi:** O'quvchilarga akrobatika mashqlarini bajarish orqali ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Metod: "Ko'rsatmali", "Amaliy mashqlar bajarish".

Kerakli jihozlar: Gimnastika mati, gimnastika o'rindig'i, AKT vositalari, gimnastikaga mansub turli rasmlar.

Dars o'tish joyi: Sport zal.

Mashg'ulotning borishi

Dars qismlari	Darsning borishi	Vaqt	Metodik ko'rsatma
Tayyorlov qism 10-12	Saflanish. Salomlashish. Davomatni aniqlash. Dars mavzusi va vazifalari bilan tanishtirish.	1-2	Slaydlar, gimnastikaga mansub rasmlardan foydalanish.

<p>daqiq</p>	<p>Nazariy bilim berish. Gimnastika mashqlari ma'lumotlar berish. Saf mashqlari: Sanash, bir qatordan ikki qatorga saflanish. Yugurish mashqlari: a)chap yonlama; b) o'ng yonlama; c)tizzalarni baland ko'tarib yugurish; d) oyoqlarni orqaga tashlab yugurish. Doira bo'ib URM bajarish: 1-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoq-lar yelka kengligida, boshni uch martadan o'ng, chap tarafdagi aylantirish. 2-mashq. D.h. qo'llar yelkada, oyoqlar yelka kengligida, 1-4 qo'l-larni oldinga, 1-4 orqaga aylanti-rish. 3-mashq. D.h. o'ng qo'l belda, chap qo'l pastda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 chap qo'lni oldinga 5-8 o'ng qo'lni oldinga aylanti-ramiz. 4-mashq. D.h. qo'llarni oldinga, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 tirsaklarni oldinga, 5-8 tirsaklarni orqaga aylantirish. 5-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 belni chap tarafga, 1-4 o'ng tarafga aylantirish. 6-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligidan sal kengroq. 1-chap oyqqa, 2-o'rtaga, 3-o'ng oyoqqa egilamiz, 4-D.h. 7-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar keng yozilgan. 1-chap oyoqqa o'tiramiz, 2-D.h., 3-</p>	<p>3-5 daqiqa 1-2 daqiqa 6-8 daqiqa 3-4 marta 3-4 marta 3-4 marta 3-4 marta 3-4 marta 3-4 marta 3-4 marta 3-4 marta 3-4 marta</p>	<p>Qomatni to'g'ri saqlab yurish. Yugurish masqlarini bajarishda oraliq masofaga e'tibor qaratish. Bajarish kerak bo'lgan mashqlarni ko'rsatib berish. URMlarni to'g'ri bajarishga e'tibor qaratish. Boshni bog'inlar bilan to'liq aylantirish, ko'zni yummaslik. Kuraklarni to'liq aylantirish. Qo'llarni oldinga, orqaga aylantirish. Aylantirishda tirsaklarni bukimaslik. Shu mashqni o'zi qo'llarni orqaga aylantiramiz. Gavda tik turishiga ahamiyat qaratish. Shoshmasdan, belni to'liq aylantirish. Egilish jarayonida tizzalarni bukimaslik. Ko'proq egilishga ahamiyat qaratish. Gavdani tik tutishga ahamiyat qaratish. Qo'llarni tushurmaslikka va oyoq tizzalarini bukmasdan bajarish. Tizzalar ko'krak qafasiga tegishiga harakat qilish. Kerilishda qo'llarni keng yoyishga harakat qilish</p>
---------------------	---	---	--

	o'ng oyoqqa o'tiramiz, 4-D.h. 8-mashq. D.h. qo'llar uzatilgan, oyoqlar yelka kengligida. 1-chap oyoqni o'ng qo'lga, 2-o'ng oyoqni chap qo'lga tekkazish. 9-mashq. D.h. A.t., 1-yuqoriga baland sakrash, 2-D.h. 10-mashq. D.h. cho'qqayib o'tirib, qo'llar tizzalarda, 1-yuqoriga baland sakrab kerilish, 2D.h.		
Asosiy qism 25-28 daqiqa	Akrobatik mashqlarni bajarish: a) G'ujanak bo'lish; b) G'ujanak bo'lib orqaga dumalash; c) Oldinga umboloq oshish; d) "Ko'prik" hosil qilish mashqlari. Gimnastika o'rindig'ida mashqlar bajarish. a) Gimnastika o'rindig'iga tayanish mashqlarini bajarish; b) Qo'llarni bukib yozish mashqlari.	18-20 3-4 daqiqa 3-4 daqiqa 4-6 daqiqa 4-6 daqiqa 6-8 daqiqa 4-6 1-2	Xavfsizlik qoidalariga rioya etish va nazorat qilib borish. O'g'il bolalar polda qiz bolalar gimnastika o'rindig'ida. Gimnastika o'rindig'i yordamida turli mashqlar bajarish.
Yakuniy qism 3-5 daqiqa	Yengil yugurish. Nafasni rostdash. Qayta saflanish. O'quvchilarni baholash. Uyga vazifa berish. Sport zaldan saf bilan chiqish.	2-3 daqiqa 1-2 daqiqa	O'quvchilarni darsga kelgan holatlariga qaytarish. Joriy nazorat (JN) baholash

2-SINF

Mavzu: "Harakatli o'yinlar" (estafeta o'yinlari)

Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar:

Darsning asosiy maqsadi, gimnastika anjomlaridan samarali foydalanilgan holda estafetali o'yinlarini tashkil etish. Bu orqali o'quvchilarga gimnastika anjomlari bilan tanishtirish hamda inson salomatligiga foydali ta'sir ko'rsatuvchi mashqlarni o'rgatishdan iborat.

Darsning tayorlov qismida o'quvchilarni egiluvchanlikka asoslangan umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish orqali tayorlab olinadi.





Asosiy qismda o'quvchilarni 3-4 guruhlarga bo'lib, estafetali o'yinlari o'rgatiladi. Ushbu estafetali o'yinlari 5 ta shartdan iborat bo'lgan holda musobaqa tarzida o'tkaziladi. Start chizig'idan marragacha bo'lgan masofa 10-15 metr bo'lishi maqsadga muvofiqdir.


Estafetali o'yinlarni o'rgatish. Estafeta qoidqsiga muvofiq mashqni birinchi bo'lib yakunlagan guruhga 3 ochko, keying guruhlarga 2 va 1 ochkolari bilan rag'batlantiriladi. Rag'batlantirish jarayonida shartni bajarishda qo'yilgan xatoliklarni ham inobatga inobatga olinishi shart.

1-shart. "Botqoqni kechib o't".

Bunda har bir guruh uchun start chizig'idan marragacha gimnastika halqalarini shaxmat doskasi ko'rinishida qo'yib chiqiladi. O'qituvchining buyrug'i bilan o'quvchilar gimnastika halqalari ichlarida sakrab-sakrab borib qaytadilar. Sakrash jarayonida o'quvchilar har bir gimnastika halqasini (chap, o'ng oyoqda) bosib o'tishlari kerak. Shu boisdan halqalar bir-biriga yaqin holatda bo'ladi. Halqalardan chiqib ketgan o'quvchi jamoasiga jarima belgilanadi.

Shartli belgilar:

-  - O'quvchilar;
-  - Gimnastika gardishlar
-  kigli (to'ldirma to'plardan ham foydalanish mumkin);
-  - harakatlanish.



2-shart. "Chambarakni tez dumalat".

Bu mashqni bajarishda har bir jamoada bittadan gimnastik halqasi bo'lib, guruhdagi o'quvchilar belgilangan joygacha dumalatib borib, qaytishlari kerak. Shu tarzda guruhdagi o'quvchilar ketma-ketligida bajariladi. Qoidaga binoan "chambarak"ni yiqitib yubormaslik lozim.

3-shart. "Chigirtkalar".


Bu shartda ham jamoalarda bittadan gimnastik halqalar bo'lib, jamoadagi har bir o'yin qatnashchisi navbat bilan halqani arg'amchi singari belgilangan joygacha sakrab borib, sakrab qaytadilar. Shu tarzda jamoadagi o'yinchilar ketma-ketlikda bu shartni bajaradilar.

4-shart. "Muvozanat saqlab yugur!".

Ushbu shartni bajarish uchun gimnastika o'rindig'ini o'girib qo'yiladi. Har bir jamoadagi o'quvchilar gimnastika o'rindig'i ustidan ustidan yurib o'tib, belgilangan joyni aylanib o'tgach, yana orqaga shu mashqni bajarib qaytadilar. Gimnastika o'rindig'i ustida yurishda qo'llarni yonga uzatishlari shart.

Shartli belgilar:

-  O'quvchilar;
-  - Gimnastika o'rindig'i



5-shart. "Ilon yurish".

Shartni bajarish uchun har bir guruh uchun uzunasiga qo'yilgan 2 ta gimnastika mati kerak bo'ladi. O'quvchilar gimnastika to'shagi ustida yotib oldinga qo'l va oyoq bilan emaklashib borib, qaytishlari lozim.


Shartli belgilar:



- O'quvchilar;



- Gimnastika to'shagi



Mashg'ulot bosqichlari

Mavzu : Akrobatika mashqlari asosida estafetali harakatli o'yinlari.

Maqsad: O'quvchilarda gimnastika elementlaridan foydalangan holda harakatli o'yinlarni o'rgatish orqali egiluvchanlik, kuch va ephillik jismoniy sifatlarini rivojlantirish

Vazifalar:

1. **Ta'limiy:** Akrobatika mashqlarini bajarishda jismoniy sifatlarni shakllantiruvchi mashqlarni to'g'ri bajarishni o'rgatish.

2. **Tarbiyaviy:** Mashg'ulot jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish hamda mashqlarni to'g'ri bajarish.

3. **Sog'lomlashtiruvchi:** O'quvchilarga akrobatika mashqlarini bajarish orqali ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Metod: "Ko'rsatmali", "Musobaqa", "Amaliy mashqlar bajarish".

Kerakli jihozlar: Gimnastika mati, gimnastika o'rindig'i, kiglilar, gimnastika gardishlari, AKT vositalari, gimnastikaga mansub turli rasmlar, arg'amchi.

Dars o‘tish joyi: Sport zal.

Mashg‘ulotning borishi

Dars qismlari	Darsning borishi	Vaqt	Metodik ko‘rsatma
Tayyorlov qism 10-12 daqiqa	Saflanish. Salomlashish. Davomatni qabul qilib, aniqlash. Dars mavzusi va vazifalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish.		Mavzu yuzasidagi nazariy ma’lumotlarni berish.
	Nazariy bilim berish. Tabiat inomlari va ularni asrash. Saf mashqlarini takrorlash. Yuguri, yugurish mashqlarini bajarish.	1 daqiqa	Yugurish masqlarini bajarishda oraliq masofaga e’tibor qaratish.
	Doira bo‘ib URM bajarish:	3-5 daqiqa	URM larni to‘g‘ri bajarishga e’tibor qaratish.
	1-mashq. D.h. qo‘llar belda, oyoqlar yelka kengligida, boshni uch martadan o‘ng va chap taraflarga aylantirish.	1-2 daqiqa 6-8 daqiqa	Boshni bog‘inlar bilan to‘liq, ko‘zni yummasdan bajarish.
	2-mashq. D.h. qo‘llar yelkada, oyoqlar yelka kengligida, 1-4 qo‘llarni oldinga, 1-4 orqaga aylantirish.	3-4 marta 3-4 marta	Kuraklarni to‘liq aylantirish.
	3-mashq. D.h. o‘ng qo‘l belda, chap qo‘l pastda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 chap qo‘lni oldinga aylantiramiz. Qo‘llar almashadi, 5-8 o‘ng qo‘lni oldinga aylantiramiz. Shu mashqni o‘zi qo‘llarni orqaga aylantiramiz.	3-4 marta	Avval, qo‘llarni oldinga, so‘ng orqaga aylantirish mashqlari bajariladi. Aylantirishda qo‘llar tirsaklardan bukilmaligi lozim.
	4-mashq. D.h. qo‘llarni oldinga uzatib, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 tirsaklarni oldinga, 5-8 tirsaklarni orqaga aylantirish.	3-4 marta 3-4 marta	Gavda tik turishiga ahamiyat qaratish. Shoshmasdan, belni to‘liq aylantirish.
	5-mashq. D.h. qo‘llar belda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 belni chap tarafga, 1-4 o‘ng tarafga aylantirish.	3-4 marta 3-4 marta	Egilish jarayonida tizzalarni bukmasdan bajarish. Ko‘proq egilishga ahamiyat qaratish. Gavdani tik tutishga ahamiyat qaratish.
			Qo‘llarni tushurmaslikka va oyoq tizzalarini bukmasdan bajarish.

	<p>6-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligidan sal kengroq. 1-chap oyqqa, 2-o'rta, 3-o'ng oyoqqa egilamiz, 4-D.h.</p> <p>7-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar keng yozilgan. 1-chap oyoqqa o'tiramiz, 2-D.h., 3-o'ng oyoqqa o'tiramiz, 4-D.h.</p> <p>8-mashq. D.h. qo'llar uzatilgan, oyoqlar yelka kengligida. 1-chap oyoqni o'ng qo'lga, 2-o'ng oyoqni chap qo'lga tekkazish.</p> <p>9-mashq. D.h. tik turish, 1-sakrab, tizzalar tagidan qarsak chalish, 2-D.h.</p> <p>10-mashq. D.h. cho'kka tushib o'tirish, qo'llar tizzalarda, 1-yuqoriga baland sakrab kerilish, 2-D.h.</p>		<p>Tizzalar ko'krak qafasiga tegishiga harakat qilish. Kerilishda qo'llarni keng yoyishga harakat qilish</p>
<p>Asosiy qism 25-28 daqiqa</p>	<p>O'quvchilarni 3-4 guruhlariga bo'linadi.</p> <p>1.Estafetali musobaqa o'yinlari;</p> <p><i>1-shart.</i> "Botqoqni kechib o't",</p> <p><i>2-shart.</i> "Chambarakni tez dumalat",</p> <p><i>3-shart.</i> "Chigirtkalar",</p> <p><i>4-shart.</i> "Muvozanat saqlab yugur!",</p> <p><i>5-shart.</i> "Ilon yurish".</p> <p>2.Arg'amchida sakrash;</p>	<p>15-18</p> <p>1 marta</p> <p>1 marta</p> <p>1 marta</p> <p>1 marta</p> <p>8-10 daqiqa</p>	<p>O'z-o'zini xavfsizligini ta'minlash qoidalariga rioya etish. Bajarilishi kerak bo'lgan shartlarni ko'rsatib, tushuntirish berish.</p> <p>30 sonya davomida sakrash</p>
<p>Yakuniy qism 3-5 daqiqa</p>	<p>Yengil yugurish mashqlari.</p> <p>Nafasni rostdash.</p> <p>Qayta saflanish.</p> <p>O'quvchilarni baholash.</p>	<p>2-3 daqiqa</p> <p>1-2 daqiqa</p>	<p>O'quvchilarni darsga kelgan holatlariga qaytarish.</p>

3-sinf. 43-dars.

Mavzu. "Yakkacho'pda muvozanat saqlash" mashqlarini bajarish.

Mavzu: Yakkacho'pda muvozanat saqlash mashqlari.

Maqsad: O‘quvchilarda muvozanat saqlab yurish mashqlarini o‘rgatish bilan birga kuch, chidamlik, egiluvchanlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Vazifalar: ta’limiy: Akrobatika mashqlarini bajarishda jismoniy sifatlarni shakllantiruvchi mashqlarni to‘g‘ri bajarishni o‘rgatish.

Tarbiyaviy: Mashg‘ulot jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda mashqlarni to‘g‘ri bajarish.




Sog‘lomlashtiruvchi: O‘quvchilarga akrobatika mashqlarini bajarish orqali ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Metod: “Ko‘rsatma”, “Musobaqa”, “Amaliy mashqlar bajarish”.


Kerakli jihozlar: Yakkacho‘p, bayroqchalar, gimnastika o‘rindig‘i, gimnastika mati, to‘ldirma to‘plar.

Dars o‘tish joyi: Sport zal.

Mashg‘ulot bosqichlari

Dars qismlari	Darsning borishi	Vaqt	Metodik ko‘rsatma
Tayyorlov qism 10-12 daqiqa	Saflanish. Salomlashish. Davomat qabul qilish va davomat aniqlash. Dars mavzu va vazifalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish.	1 daqiqa	Shug‘ullanuvchilarni bir qator safga tortib amalgam oshirish. Slayd, rasmlardan foydalanish.
	Nazariy bilim berish. Jismoniy mashqlarni bajarishda to‘g‘ri nafas olish va chiqarishni o‘rgatish. Saf mashqlari (bir, ikki qatorga saflanish)	3-5 daqiqa	
	Yurish va yugurish mashqlarini bajarish. Yugurish mashqlari: a) Chap yonlama; b) O‘ng yonlama; c) Tizzalarni ko‘tarib yugurish.	1-2	
	URM (doira bo‘lib turish) bajarish.	6-8 daqiqa	
	1-mashq. D.h. Oyoqlar kerilgan, qo‘llar belda, 1-4 boshni o‘nga, 1-4 boshni chapga aylantirish.	4-6 marta	Boshni aylantirganda ko‘zni yummasdan aylantirishni nazort qilish
	2-mashq. D.h. Oyoqlar kerilgan qo‘llar yelkada, 1-4 qo‘llarni oldinga, 5-8 orqaga aylantirish.	4-6 marta	Yelkani aylantirishda qo‘llarni uzmaslik.
	3-mashq. D.h. Oyoqlar kerilgan, o‘ng qo‘l yuqorida chap qo‘l pastda 1-2 o‘ng va chap qo‘lni orqaga cho‘ziladi, 3-4 chap va o‘ng qo‘lni orqaga cho‘ziladi	4-6 marta	Mashqni bajarganda qo‘llarni tirsakdan bukish mumkin emas Tirsaklarni oldinga to‘liq aylantirish
	4-mashq. D.h. Oyoqlar kerilgan	4-6 marta	Gavdani oldinga

	<p>qo'llar oldinda, 1-4 tirsaklarni oldinga aylantirish, 5-8 orqaga aylantirish.</p> <p>5-mashq. D.h. Oyoqlar kerilgan, o'ng qo'l yuqorida chap qo'l belda 1-2 chapga engashish, 3-4 o'nga engashish.</p> <p>6-mashq. D.h. Oyoqlar keng, kerilgan qo'llar oldinda, 1-chap qo'l bilan o'ng oyoqqa cho'zilish, 2-o'ng qo'l bilan chap oyoqqa cho'zilish</p> <p>7-mashq. D.h. Oyoqlar kerilgan qo'llar belda, 1-chap oyoqqa o'tirish, 2-D.h., 3-o'ng oyoqqa o'tirish, 4-D.h.</p> <p>8-mashq. D.h. A.T. 1-4 o'ng oyoq tizzasini yuqoriga tortib aylantirish 5-8 almashtirish.</p>	4-6 marta	<p>bukmaslik kerak</p> <p>Gavdani oldinga ko'proq tashlash va oyoqlarni tizzadan buqilishiga yo'l qo'ymaslik kerak</p> <p>O'tirganda gavnani to'qri tutishlari va mashqni tuqri bajarilishini nazorat qilish</p> <p>Oyoqlarni ko'proq cho'zilishga harakat qilish.</p>
<p>Asosiy qism 26-28 daqiqa</p>	<p>1. Yakkacho'p ustida muvozanat saqlab yurish;</p> <p>2. Yakkacho'pda "Qaldirg'och" hosil qilish;</p> <p>3. Umboloq oshish mashqlarini takomillashtirish;</p> <p>4. Qo'llarni bukib yozish mashqlari.</p>	<p>8-10</p> <p>4-6</p> <p>6-8</p> <p>2-4</p>	<p>Yakkacho'p ustida yurishda buyum va buyumlarsiz bajarish.</p> <p>Jismoniy nashqlarni qoida asosida va xavfsizlik qoidalariga rioya etish.</p>
<p>Yakuniy qism 3-5 daqiqa</p>	<p>Turnikda osilib turgan holda tortilish mashqlari.</p> <p>Nafasni rostdash.</p> <p>Qayta saflanish.</p> <p>O'quvchilrni baholash.</p> <p>Uyga vazifa berish.</p> <p>Zaldan saf bilan chiqish.</p>	3-5 daq	<p>Uyga vazifa.</p> <p>O'quvchilar mashq bajarishdagi xatolarini aytib o'tish.</p> <p>Mashg'ulotda aniqlangan yutuq va kamchiliklar e'lon qilish.</p>



4-sinf

Mavzu. Akrobatika. “Estafetali harakatli o‘yinlar”ni o‘rgatish

Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar:

O‘quvchilarni jismoniy tarbiya faniga qiziqtirishlarini yanada oshirish maqsadida dars jarayonlarini harakatli o‘yinlari bilan tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o‘yinlar o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Musobaqa tarzida olib borilishining afzallik tarafi o‘quvchilarda bir jamoa bo‘lib ishlashga, qo‘yilgan vazifani bajarish va maqsadsari kurashish hislatlarini o‘rgatadi.

Estafetali harakatli o‘yinlar.

O‘yin estafeta qoidqsiga muvofiq har bir mashqni bajarishdan avval o‘quvchilar yodiga solib turish kerak bo‘ladi.

Mazkur darsni tashkil etishda sinf o‘quvchilarini 3-4 jamoaga bo‘linib, ularga sardorlar tayinlanadi. Birinchi bo‘lib shartni bajargan jamoa 3 ochko, keying guruhlariga 2, 1 va 0 ochkolari bilan rag‘batlantiriladilar. Rag‘batlantirish jarayonida jarimalarni ham inobatga olinadi.

1-shart. “Kenguru”. Bunda jamoa o‘in boshchisi to‘pni oyoq tizzalariga qisib olib o‘qituvchining buyrug‘ini kutadi. O‘qituvchi buyrug‘iga binoan o‘quvchilar belgilangan joygacha sakrab borib, sakrab qaytadilar. Startdan finish chizig‘igacha bo‘lgan oraliq masofa 10-15 metrni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Shartni bajarayotgan o‘quvchi agarda to‘pni tizzalari orasidan tushurib yuborsa, shu joydan musobaqani davom ettiradi. Bu holat jamoaga jarima olib keladi.

2-shart. “Bo‘g‘irsoq”. Har bir jamoani qarshisida gimnastika o‘rindig‘i qo‘yiladi. Birinchi qatnashuvchi o‘quvchi chap qo‘liga kiglini, o‘ng qo‘liga to‘pni ushlaydi. O‘qituvchining buyrug‘i bilan o‘quvchi gimnastika o‘rindig‘i bo‘ylab o‘ng qo‘lda to‘pni dumalatib borib, kiglini halqa ichiga qo‘yib, chap qo‘lda to‘pni gimnastika o‘rindig‘i ustida dumalatib qaytadi. Keyingi o‘quvchi aynan shu mashqni o‘zini bajaradi, ammo qaytishida halqa ichidagi kiglini olib kelib keyingi o‘quvchining qo‘liga beradi.

Shartli belgilar:



O‘quvchilar;



Gimnastika gardishlar;




- Kigli;



- To‘p;



- Gimnastika o‘rindig‘i.




3-shart. “Suvarak”. O‘yin qatnashchilari orqa yonbosh holatida ikkala qo‘llar yerda tayanadilar. To‘pni qorinlariga qo‘ygan holda harakatlanishlari kerak. O‘qituvchi buyrug‘iga binoan guruh qatnashchilari belgilangan joyni aylanib, qaytadilar. Musobaqa shartiga ko‘ra harakatlanish jarayonida to‘pni tushirib yubormasliklari va mashqni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, keying o‘yinchingin qorin qismiga qo‘yib berishi lozim.

4-shart. “Ahil bolalar”. Guruhdagi o‘quvchilarni juftliklarga bo‘linadi. O‘quvchilar bir-birlariga yuzma-yuz turib, qo‘llarini ushlaydi. Shartni bajarish uchun tayorgarlik ko‘rib turgan juftlik qo‘llari ustiga to‘pni qo‘yadilar. O‘qituvchining buyrug‘i bilan jamoadagi birinchi juftliklar belgilangan joyga borib qaytib, to‘pni keying juftlikka beradilar. Shu tarzda musobaqa oyini davom ettiriladi. Bu shartning eng muhim ahamiyatlardan biri shuki, juftliklar shartni bajarayotganlarida to‘pni ushlaydi yoki tushirib yubormasliklari lozim. Eng asosiysi birga harakat qilishlari kerak.

5-shart. “Sakra quyoncha”. O‘qituvchining buyrug‘i bilan birinchi o‘yin qatnashchisi dastlab arg‘aimchada sakrab borishi va to‘p atrofidan aylanib orqaga qaytishi kerak. Shunday qilib barcha jamoa a‘zolari shartni bajaradilar. Shartni murrakkablashtirish mumkin.

Shartli belgilar:

 O‘quvchi  to‘p



Mashg‘ulot bosqichlari

Mavzu : Akrobatika. Estafetali harakatli o‘yinlar.

Maqsad: O‘quvchilarda gimnastika elementlaridan foydalangan holda harakatli o‘yinlari orqali egiluvchanlik, kuch va epchillik jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Vazifalar:

1. **Ta‘limiy:** Akrobatika mashqlarini bajarishda jismoniy sifatlarni shakllantiruvchi mashqlarni to‘g‘ri bajarishni o‘rgatish.

2. **Tarbiyaviy:** Mashg‘ulot jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda mashqlarni to‘g‘ri bajarish.

3. Sog'lomlashtiruvchi: O'quvchilarga akrobatika mashqlarini bajarish orqali ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Metod: "Musobaqa", "Amaliy mashqlar bajarish", "Ko'rsatma".

Kerakli jihozlar: Gimnastika mati, gimnastika narvoni, AKT vositalari.

Dars o'tish joyi: Sport zal.

Mashg'ulotning borishi

Dars qismlari	Darsning borishi	Vaqt	Metodik ko'rsatma
Tayyorli ov qism 10-12 daqiqa	Saflanish. Salomlashish. Davomat-ni qabul qilib, aniqlash. Dars mavzusi va vazifalari bilan tanishtirish.	1 daqiqa	x x x x x x x x X
	Nazariy bilim berish. Jismoniy sifatlari va ulni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi.	3-5 daqiqa 1-2 daqiqa	Mavzu haqida qisqacha ma'lumot berishda AKT vositalaridan foydalanish.
	Saf mashqlari. Yurishdan mashqlaridan yugurishga o'tish. Yugurish mashqlari:	6-8 daqiqa 3-4 marta 3-4 marta	Yugurish masqlarini bajarishda oraliq masofaga e'tibor qaratish.
	a) chap yonlama;		Bajarish kerak bo'lgan mashqlarni ko'rsatib berish.
	b) o'ng yonlama;	3-4 marta	URMlarni to'g'ri bajarishga e'tibor qaratish.
	c) tizzalarni baland ko'tarib yugurish.	3-4 marta	Boshni bog'inlar bilan to'liq, ko'zni yummasdan bajarish.
	URM doira bo'lib bajarish:		Kuraklarni to'liq aylantirish. Avval,
	1-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligida, boshni uch martadan o'ng va chap tarablarga aylantirish.	3-4 marta	qo'llarni oldinga, so'ng orqaga aylantirish mashqlari bajariladi.
	2-mashq. D.h. qo'llar yelkada, oyoqlar yelka kengligida, 1-4 qo'llarni oldinga, 1-4 orqaga aylantirish.	3-4 marta	Aylantirishda qo'llar tirsaklardan bukilmaligi lozim.
	3-mashq. D.h. o'ng qo'l belda, chap qo'l pastda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 chap qo'lni oldinga aylantiramiz. Qo'llar almashadi, 5-8 o'ng qo'lni oldinga aylanti-ramiz. Shu mashqni o'zi qo'llarni orqaga aylantiramiz.	3-4 marta 3-4 marta	Gavda tik turishiga ahamiyat qaratish.
4-mashq. D.h. qo'llarni oldinga uzatib, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 tirsaklarni oldinga, 5-8 tirsaklarni orqaga aylantirish.	3-4 marta 3-4 marta	Shoshmasdan, belni to'liq aylantirish.	
5-mashq. D.h. qo'llar belda,		Egish jarayonida tizzalarni bukmasdan bajarish.	


	<p>oyoqlar yelka kengligida. 1-4 belni chap tarafga, 1-4 o'ng tarafga aylan-tirish.</p> <p>6-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoq-lar yelka kengligidan sal kengroq. 1-chap oyqqa, 2-o'rtaga, 3-o'ng oyoqqa egilamiz, 4-D.h.</p> <p>7-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoq-lar keng yozilgan. 1-chap oyoqqa o'tiramiz, 2-D.h., 3-o'ng oyoqqa o'tiramiz, 4-D.h.</p> <p>8-mashq. D.h. qo'llar uzatilgan, oyoqlar yelka kengligida. 1-chap oyoqni o'ng qo'lga, 2-o'ng oyoqni chap qo'lga tekkazish.</p> <p>9-mashq. D.h. tik turish, 1-sakrab, tizzalar tagidan qarsak chalish, 2-D.h.</p> <p>10-mashq. D.h. cho'kka tushib o'tirish, qo'llar tizzalarda, 1-yuqoriga baland sakrab kerilish, 2-D.h.</p>		<p>Ko'proq egilishga ahamiyat qaratish.</p> <p>Gavdani tik tutishga ahamiyat qaratish. Qo'l-larni tushurmaslikka va oyoq tizzalarini bukmasdan bajarish.</p> <p>Tizzalar ko'krak qafasiga tegishiga harakat qilish.</p> <p>Kerilishda qo'llarni keng yoyishga harakat qilish</p>
<p>Aso siy qism 26-28 daqiq</p>	<p>O'quvchilarni 3-4 guruhlariga bo'linadi.</p> <p>1.Estafetali musobaqa o'yinlari;</p> <p>1-shart. "Kenguru", 2-shart. "Suvarak", 3-shart. "Ahil bolalar", 4-shart. "Bo'g'irsoq", 5-shart. "Sakra quyoncha".</p> <p>2. Oldiga, orqaga umboloq oshishni takrorlash;</p> <p>3. Arg'amchida sakrash.</p>	<p>10-12</p> <p>8-10</p> <p>4-6</p>	<p>Estafeta shartlari qoidalariga rioya etish.</p> <p>Xavfsizlik qoidalariga rioya etish.</p>
<p>Ya kuniy qism 3-5 daqiq</p>	<p>Yengil yugurish. Nafasni rostdash. Qayta saflanish. O'quvchilarni baholash. Sport zaldan saf bilan chiqish.</p>	<p>2-3 daqiqa</p> <p>1-2 daqiqa</p>	<p>O'quvchilarni darsga kelgan holatlariga qaytarish.</p> <p>Joriy nazorat (JN) baholash</p>

5-sinf

Mavzu. Akrobatika. Belda va kurraklarda turish.

Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar:

Akrobatika asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: jismoniy sifatlardan egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilganligi



hamda o'rganilayotgan harakat mashqlarining biror-bir murakkab bo'lgan qismini o'qituvchi yordamida to'liq o'rganiladi.

Kuraklarda tik turish. Orqaga dumalashning oxirgi nuqtasida qo'llar bikilib, kaftlar bilan beldan ushlanadi va tirsaklarni orqaga yo'naltiriladi. Orqaga g'ujanak bo'lib, umboloq oshish mashqini bajarish malakasiga ega bo'lish kerak.



Kuraklarda turishni o'rganishdagi mashqlar majmuasi. Ushbu mashqni o'rgatishda gimnastika narvonlaridan foydalaniladi. Bunda gimnastika narvoniga chalqahcha yotilib, pastdagi tayoqchasini ikki qo'l bilan mahkam ushlanadi. Oyoqlar ni iloji boricha yuqoriga ko'targan holda gimnastika narvonining baland joyiga tekkazish bajariladi.



Oldinga umboloq oshish. Cho'qqayib o'tirgan holatda qo'llar kaftini gimnastika matiga qo'yiladi. Bunda oraliq masofa 40-50 sm bo'lishi mumkin. Gavdani og'irligini qo'llarga o'tkazib, oyoqqa turiladi. Bosh orqaga aylanib yumshoqina gimnastika matiga bo'yinni, kurakni tekkaziladi. Kurakni gimnastika



matiga tegishi bilan tezda g'ujanak holatiga o'tib, dastlabki holatiga o'tiladi.

Mavzu : Akrobatika. Belda va kurraklarda turish.

Maqsad: O'quvchilarga mustaqil ravishda bel va kurraklarda turishni o'rgatish hamda egiluvchanlik, kuch va epchillik jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Ta'limiy: Akrobatika mashqlarini bajarishda jismoniy sifatlarni shakllantiruvchi mashqlarni to'g'ri bajarishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: Mashg'ulot jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish hamda mashqlarni to'g'ri bajarish.

Sog'lomlashtiruvchi: O'quvchilarga akrobatika mashqlarini bajarish orqali ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Metod: "Amaliy mashqlar bajarish", "Ko'rsatmali".

Kerakli jihozlar: Gimnastika mati, gimnastika narvoni, AKT vositalari.

Dars o'tish joyi: Sport zal.

Mashg'ulotning borishi

Dars qismlari	Darsning borishi	Vaqti	Metodik ko'rsatma
Tayorlov qism 10-12 daqiqa	Saflanish. Salomlashish. Davomat-ni qabul qilish. Dars mavzusi va vazifalari bilan o'quvchilarni tanishtirish.	1 daqiqa	x x x x x x x x x X
	Nazariy bilim berish. Tish va o'g'iz bo'shliqlarini parvarish qilish mavzu bo'yicha ma'lumotlar berish.	3-5 daqiqa 1-2 daqiqa	Mavzu haqida qisqacha ma'lumot berishda AKT vositalaridan foydalanish. Qomatni to'g'ri saqlab yurish. Yugurish masqlarini bajarishda oraliq masofaga e'tibor qaratish.
	Saf mashqlari. Bir qatordan ikki, uch qatorga saflanishni takrorlash.	6-8 daqiqa 3-4 marta 3-4 marta	Yugurish masqlarini bajarishda oraliq masofaga e'tibor qaratish.
	Yurish va yugurish mashqlarini bajarish.	3-4 marta	URMlarni to'g'ri bajarishga e'tibor qaratish.
	Doira bo'ib URM bajarish: 1-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligida, boshni uch martadan o'ng va chap taraflarga aylantirish.	3-4 marta	Boshni bog'inlar bilan to'liq, ko'zni yummasdan bajarish.
	2-mashq. D.h. qo'llar yelkada, oyoqlar yelka kengligida, 1-4 qo'llarni oldinga, 1-4 orqaga aylantirish.	3-4 marta	Kurraklarni to'liq aylantirish.
	3-mashq. D.h. o'ng qo'l belda, chap qo'l pastda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 chap qo'lni oldinga aylantiramiz. Qo'llar almashadi, 5-8 o'ng qo'lni oldinga aylanti-ramiz. Shu mashqni o'zi qo'llarni orqaga aylantiramiz.	3-4 marta 3-4 marta	Avval, qo'llarni oldinga, so'ng orqaga aylantirish mashqlari bajariladi. Aylantirishda qo'llar tirsaklardan bukilmaligi lozim.
	4-mashq. D.h. qo'llarni oldinga uzatib, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 tirsaklarni oldinga, 5-8 tirsaklarni orqaga aylantirish.	3-4 marta 3-4 marta	Gavda tik turishiga ahamiyat qaratish.
	5-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 belni chap tarafga, 1-4 o'ng tarafga aylantirish.		Shoshmasdan, belni to'liq aylantirish. Egilish jarayonida tizzalarni bukmasdan bajarish. Ko'proq egilishga ahamiyat qaratish. Gavdani tik tutishga ahamiyat qaratish. Qo'llarni tushurmaslikka va oyoq tizzalarini bukmasdan bajarish.

	<p>6-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligidan sal kengroq. 1-chap oyoqqa, 2-o'rtaga, 3-o'ng oyoqqa egilamiz, 4-D.h.</p> <p>7-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar keng yozilgan. 1-chap oyoqqa o'tiramiz, 2-D.h., 3-o'ng oyoqqa o'tiramiz, 4-D.h.</p> <p>8-mashq. D.h. qo'llar uzatilgan, oyoqlar yelka kengligida. 1-chap oyoqni o'ng qo'lga, 2-o'ng oyoqni chap qo'lga tekkazish.</p> <p>9-mashq. D.h. tik turish, 1-sakrab, tizzalar tagidan qarsak chalish, 2-D.h.</p> <p>10-mashq. D.h. cho'kka tushib o'tirish, qo'llar tizzalarda, 1-yuqo-riga baland sakrab kerilish, 2-D.h.</p>		Tizzalar ko'krak qafasiga tegishiga harakat qilish. Kerilishda qo'llarni keng yoyishga harakat qilish
Asosiy qism 26-28 daqiqa	<p>Akrobatika mashqlari:</p> <p>1. Kuraklarda tik turish;</p> <p>2. Kuraklarda turishni o'rgatish mashqlar majmuasi;</p> <p>3. Oldinga, orqaga ikki marta umboloq oshishni takomillashtirish.</p>	<p>6-8</p> <p>6-8</p> <p>10-12</p>	Bajarilayotgan mashqlarni ko'rsatib, o'rgatish. Ikki marta oldinga, orqaga umboloq oshish mashqlarini takomillashtirish.
Yakuniy qism 3-5 daqiqa	<p>Yengil yugurish. Nafasni rostdash.</p> <p>Qayta saflanish. O'quvchilarni baholash. Uy vazifa berish.</p> <p>Sport zaldan saf bilan chiqish.</p>	<p>2-3 daqiqa</p> <p>1-2 daqiqa</p>	O'quvchilarni darsga kelgan holatlariga qaytarish. Joriy nazorat (JN) baholash

8-sinf

Mavzu. "Arqonga uch harakatda tirmashib chiqish"ni o'rgatish

Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar:

Dars samaradorligiga erishishda sinfdagi o'quvchilarni uch guruhga bo'linib, ularning har biriga alohida mashqlar bajarish maqsadga muvofiqdir. Bunda "Aylanma" usulidan foydalanish mumkin. Mashqlar bajarish vaqti yetgach guruhlar mashg'ulot maydonchasini almashgan holda bajarib boradilar. Masalan, 1-guruh 2-guruh, 2-guruh 3-guruh va 3-guruh 1-guruh bilan almashadilar. Dars mashg'ulotlari shu tarzda olib boriladi.



O‘quvchilarni arqonga tirmashtirib chiqarishdan avval arqonni tekshirish va matlarni joylashtirish lozim. Arqonga tirmashib chiqish usulini bajarishda oyoqlar tizzalardan bukilib, o‘ng oyoqning uchi va chap oyoqning tovonlari bilan arqon qisib olinadi. Tizzalar ko‘krakka tortiladi. Qo‘llar ham harakat ritmikasiga qarab yuqoriga harakatlanadi. Bu yoshdagi o‘quvchilar uchun tirmashib chiqish 2,5-3 metr balandlikdir.

Mavzu: Arqonga uch harakatda tirmashib chiqishni o‘rgatish.

Maqsad: O‘quvchilarda arqonga tirmashib chiqish mavusi bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish hamda kuch, chidamlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Vazifalar:

1. Ta‘limiy: Arqonga tirmashib chiqishni bajarishda kuch sifatlarini shakllantirish.

2. Tarbiyaviy: Mashg‘ulot jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda mashqlarni to‘g‘ri bajarish.

3. Sog‘lomlashtiruvchi: O‘quvchilarga arqonga tirmashib chiqishni bajarish orqali ularda jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Metod: “Klaster”, “Guruhli”, “Amaliy mashqlar bajarish”, “Ko‘rsatmali”.

Kerakli jihozlar: 5 metrlik arqon, hushtak, arg‘amchilar, gimnastika o‘rindig‘i, gimnastika mati, AKT vositalari.

Dars o‘tish joyi: Sport zal.

Mashg‘ulotning borishi

Dars qismlari	Darsning borishi	Vahti	Metodik ko‘rsatma
Tayyorlov qism 10-12 daqiqa	Saflanish. Salomlashish. Davomat-ni qabul qilib, aniqlash. Dars mavzusi va vazifalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish.	1 daqiqa	x x x x x x x x X
	Nazariy bilim berish. “Iftixorlar” mavzusi yuzasidan nazariy bilim berish.	3-5 daqiqa 2-3 daqiqa	O‘quvchilarga nazariy bilim berishda AKT vositalaridan va “klaster” usulidan foydalanish.
	Saf mashqlari. O‘nga, chapga, orqaga burilishlar. Yurishdan mashqlaridan yugurish-ga o‘tish.	3-4 marta 3-4 marta	Burilishlarda oyoqlarga ahamiyat qaratish. Yugurish masqlarini bajarishda oraliq masofaga e‘tibor qaratish.
	URMlarni bajarish: 1-mashq. D.h. qo‘llar belda,	3-4 marta	URMlarni to‘rt

	<p>oyoqlar yelka kengligida, boshni uch martadan o'ng va chap taraflarga aylantirish.</p> <p>2-mashq. D.h. qo'llar yelkada, oyoqlar yelka kengligida, 1-4 qo'llarni oldinga, 1-4 orqaga aylantirish.</p> <p>3-mashq. D.h. o'ng qo'l belda, chap qo'l pastda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 chap qo'lni oldinga aylantiramiz. Qo'llar almashadi, 5-8 o'ng qo'lni oldinga aylanti-ramiz. Shu mashqni o'zi qo'llarni orqaga aylantiramiz.</p> <p>4-mashq. D.h. qo'llarni oldinga uzatib, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 tirsaklarni oldinga, 5-8 tirsaklarni orqaga aylantirish.</p> <p>5-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 belni chap tarafga, 1-4 o'ng tarafga aylantirish.</p> <p>6-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligidan sal kengroq. 1-chap oyqqa, 2-o'rta, 3-o'ng oyoqqa egilamiz, 4-D.h.</p> <p>7-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar keng yozilgan. 1-chap oyoqqa o'tiramiz, 2-D.h., 3-o'ng oyoqqa o'tiramiz, 4-D.h.</p> <p>8-mashq. D.h. qo'llar uzatilgan, oyoqlar yelka kengligida. 1-chap oyoqni o'ng qo'lga, 2-o'ng oyoqni chap qo'lga tekkazish.</p> <p>9-mashq. D.h. tik turish, 1-sakrab, tizzalar tagidan qarsak chalish, 2-D.h.</p> <p>10-mashq. D.h. cho'kka</p>	<p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p>	<p>qatordan bo'lib bajarish. Bajarish kerak bo'lgan mashqlarni ko'rsatib berish.</p> <p>Boshni bog'inlar bilan to'liq, ko'zni yummasdan bajarish.</p> <p>Kurraklarni to'liq aylantirish. Avval, qo'llarni oldinga, so'ng orqaga aylantirish mashqlari bajariladi.</p> <p>Aylantirishda qo'llar tirsaklardan bukilmaligi lozim.</p> <p>Gavda tik turishiga ahamiyat qaratish.</p> <p>Shoshmasdan, belni to'liq aylantirish.</p> <p>Egilish jarayonida tiz-zalarni bukmasdan bajarish. Ko'proq egilishga ahamiyat qaratish.</p> <p>Gavdani tik tutishga ahamiyat qaratish.</p> <p>Qo'llarni tushurmaslikka va oyoq tizzalarini bukmasdan bajarish.</p> <p>Tizzalar ko'krak qafasiga tegishiga harakat qilish.</p> <p>Kerilishda qo'llarni keng yoyishga harakat qilish</p>
--	---	---	--

	tushib o'tirish, qo'llar tizzalarda, 1-yuqoriga baland sakrab kerilish, 2-D.h.		
Asosiy qism 26-28 daqiqa	O'quvchilarni 3 guruhga bo'linib alohida mashqlar olib boriladi. 1-guruh arqonga tirmashib chiqish mashqini bajaradi; 2-guruh arg'amchida sakrashni takrorlashadi; 3-guruh qo'llarni bukib yozish mashqini bajaradilar.	6-8 6-8 6-8	Guruhlar mashg'ulot joylarini almashinib bajaradilar. Xavfsizlik qoidalariga amal qilishlarini eslatib o'tish.
Yakuniy qism 3-5 daqiqa	Yengil yugurish. Nafasni rostdash. Qayta saflanish. O'quvchilarni baholash. Uyga vazifa berish. Sport zaldan saf bilan chiqish.	2-3 daqiqa 1-2 daqiqa	O'quvchilarni darsga kelgan holatlariga qaytarish. Joriy nazorat baholash Uyga vazifa qo'llarni 6-8 marta bukib yozish mashqi

6-sinf

Mavzu: Darvozabon o'yin texnikasi

Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar:

O'qituvchi sinf o'quvchilarini bir qatorga saflantirishi va salomlashib, davomatni aniqlaydi. Dars mavzusi va vazifalari bilan o'quvchilarni tanishtirib o'tadi. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test sinovlari yuzasidan nazariy bilim beradi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Mamlakatimizda "Alpomish" va "Barchinoy" test sinovlarini joriy etishdan asosiy maqsad aholini reproduktiv salomatligini yaxshilash, "Sog'lom turmush tarzi"ni shakllantirishlardan iborat. "Alpomish" va "Barchinoy" test sinovlari uch bosqichli bo'lib, jami 15 ta yosh guruhlari nazoratga olingan. Jumladan, 1- bosqich, 5-17 yoshlarni (1guruh - 5-6, 2-guruh -7-8, 3-guruh - 9-10, 4-guruh - 11-12, 5-guruh - 13-14, 6-guruh - 15-16, 7-guruh - 17 yoshlar); 2-bosqich, 18-34 yoshlarni (1-guruh - 18-23, 2-guruh - 24-29, 3-guruh - 30-34 yoshlar); 3 – bosqich, 35-60 yoshlarni (1-guruh - 35-39, 2-guruh - 40-44, 3-guruh - 45-49, 4-guruh - 50-54, 5-guruh - 55-60 yoshlar) qamrab oladi. "Alpomish" va "Barchinoy" test sinovlari mokisimon yugurish (3x10, 4x10), arg'amchiqda sakrash, kichik to'pni 1x1metrli nishonga uloqtirish, joydan turib uzunlikka sakrash, gimnastik devorga tirmashib chiqish, osilish va sakrashlar, suzish (suvda o'yinlar), 100 metrga yugurish, Kross 1000-2000 metrga yugurish, yugurib kelib uzunlikka sakrash, baland turnikda tortilish, yugurib kelib kichik to'pni uloqtirish kabi me'yor turlaridan iboiratdir."....

Nazariy bilimlarni berib bo'lgach, darsning amaliy jarayoniga o'tadi. Bunda sinf o'quvchilarini 3-4 guruhlariga bo'lib, saf mashqlari (burilishlar: o'nga, chapga, orqaga, yurishlar: ilon izi, diogonal), yurish va yengil yugurish mashqlari, URM bajariladi. Darsning asosiy qismiga o'tishdan avval o'quvchilarga o'yin jarayonida rioya etilishi lozim bo'lgan xavfsizlik texnika qoidalari yana bir bor eslatib o'tiladi.

To'pni o'ng va chap qo'l bilan nishonga otish. Bu usulni bajarishda o'quvchi to'pni keng ochilgan panjalariga qo'yib, tirsakdan bukib, yelka ustiga olib boradi. To'pni otish kuchli va aniq bo'lishi gavdaning faol harakati hamda panjalarning yakuniy harakati hisobiga bajariladi. Shu maqsadda to'pni 6-7 metr masofadan turib bir qo'llab (avval o'ng, keyin chap) darvozaning belgilangan nuqtalariga otish mashqlari bajariladi.



To'p bilan harakatlanib kelib, sakrab yuqoridan darvozaga otish. To'pning yo'nalishi aniq bo'lishi uchun sakrab otishlarni mohirona bajarish kerak. Buning uchun, to'g'ri qo'l bilan yuqoridan otish (darvozani himoya bloki orqali ishg'ol qilishda ishlatiladi), bukilgan qo'l bilan yon tomondan otish (himoyachini aldab otib darvozani ishg'ol qilinadi).



Darvozabonning turish holatlari. Darvozabon darvoza oldida turib, yonlama qadamlar bilan yugurib, sakrab, to'pga otilib yoki yuqilish harakatlarini bajaradi.

Ikki tomonlama o'yin. Ikki tomonlama o'yini 4-5 daqiqadan iborat ikki taym bo'lib, asos o'rganilgan usullarni takomillashtirishga e'tibor qaratiladi.

Shakllantiriladigan kompetentsiya:

• **Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetentligi:** O'yin usullarini bajarishdan avval mustaqil ravishda oyoq, qo'l bo'g'inlarini umumrivojlantiruvchi mashqlar majmuasini ketma-ketlikda bajarish orqali tayorlay olish.

• **Sport asbob-anjomlarini nomi va tuzilishini tushuntirish:** Qo'l to'pi o'yin maydoni, darvozasining o'lchamlari va to'p og'irligi, diametrini bilish. Darvozaning belgilangan nuqtalariga to'p bilan nishonga olish hamda darvozabonning turish holatlarini bajara olish.

Mashg'ulot bosqichlari

Mavzu	Darvozabon o'yin texnikasi
Maqsad, vazifalar	<p>Maqsad: O'quvchilarga qo'l to'pi oyinida darvozabon texnikasini o'rgatish orqali tezkorlik, chaqqonlik va epchilik jismoniy sifatlarini rivojlantirish.</p> <p>Vazifalar:</p> <p>Ta'limiy: Qo'l to'pi o'yini qoidasi va darvozabon harakat usullari haqida bilimlari boyitish.</p> <p>Tarbiyaviy: Mashg'ulot jarayonida o'z-o'zini hamda sherigini xavfsizligini ta'minlash, sport anjomlaridan to'g'ri foydalanish, ozoda tutish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda kuch, chaqqonlik va epchilik jismoniy sifatlarini rivojlantirish.</p>
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	<p>Metod: "Guruhli", "Ko'rsatmali", "Amaliy mashqlar bajarish".</p> <p>Kerakli jihozlar: To'p, sekundamer, bayroqcha, hushtak.</p> <p>Dars o'tish joyi: Sport maydoni.</p> <p>Nazorat: O'quvchilar oldilariga qo'yilgan vazifalarni to'g'ri bajarishlari.</p> <p>Baholash: Joriy nazorat, 5 ballik tizim.</p>
Kutilayotgan natija	<p>O'qituvchi: Jismoniy sifatlarni oshirishga qaratilgan mashqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish.</p> <p>O'quvchi: Jismoniy sifatlardan chidamlilik va tezkorlikni rivojlantirish.</p>

Mashg'ulotning borishi

Dars qismlari	Darsning borishi	Vaqti	Metodik ko'rsatma
Tayyorlov qism 10-12 daqiqa	<p>Saflanish. Salomlashish. Davomat aniqlash. Dars mavzu va vazifalari bilan tanishtirish.</p> <p>Nazariy bilim berish yuzasidan "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test sinovlari yuzasidan nazariy bilim berish.</p> <p>Saf mashqlari: burilishlar (o'nga, chapga, orqaga); yurishlar (ilon izi, diagonal).</p> <p>Yurish va yugurish mashqlari.</p> <p>URMni doira bo'lib bajarish:</p> <p>1-mashq. D.h. oyoqlar yelka kengligida, qo'llar belda. 1-boshni oldinga, 2-D.h., 3-boshni orqaga, 4-D.h., 5-boshni chapga, 6-D.h., 7-boshni o'nga egamiz,</p>	<p>1 daqiqa</p> <p>2-3 daqiqa</p> <p>1-2 daqiqa</p> <p>8-10 daqiqa</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p>	<p>O'quvchilar safda bo'y-bo'ylari bilan saflanishlariga e'tibor berish.</p> <p>Burilishlarda oyoq va qo'l harakatlarini to'g'ri bajarish</p> <p>URMni ko'rsatib berish.</p> <p>Boshni to'liq egishga e'tibor berish.</p>

	<p>8-D.h.</p> <p>2-mashq. D.h. oyoqlar yelka kengligida. 1-4 qo'llarni oldinga aylantiramiz, 5-8 qo'llarni orqaga aylantiramiz.</p> <p>3-mashq. D.h. qo'llar oldinga, oyoqlar yelka kengligida. 1-4 qo'llarni qaychisimon harakatlantirish.</p> <p>4-mashq. D.h. oyoqlar yelka kengligida, chap qo'l belda, o'ng qo'l yuqorida. 1-chap tomonga egilamiz, 2-D.h., 3-o'ng tomonga egilamiz, 4-D.h.</p> <p>5-mashq. D.h. qo'l belda, oyoqlar yelka kengligida. 1-oldinga egilamiz, 2-orqaga egilamiz, 3-chap tomonga, 4-o'ng tomonga egilamiz.</p> <p>6-mashq. D.h. chap qo'l yuqorida. 1-2 chap qo'lni orqaga siltaymiz, 3-4 o'ng qo'lni orqaga siltaymiz.</p> <p>7-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligidan kengroq. 1-qo'llarni chap oyoqqa, 2-oyoqlar o'rtasi yerga, 3-o'ng oyoqqa tekkazish, 4-D.h.</p> <p>8-mashq. D.h. qo'llar oldinda, oyoqlar yelka kengligidan kengroq. 1-o'ng oyoqqa o'tiramiz, 2-D.h., 3-chap oyoqqa o'tiramiz, 4-D.h.</p> <p>9-mashq. D.h. qo'llar belda, o'ng oyoq tizzadan bukilgan holda. 1-4 o'ng oyoqni aylantiramiz, 1-4 chap oyoqni aylantiramiz.</p> <p>10-mashq. D.h. qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligida. 1-8 o'ng oyoqda, 1-8 chap oyoqda, 1-8 juft oyoqda sakraymiz.</p>	<p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p> <p>3-4 marta</p>	<p>Qo'llarni to'liq aylantirishga e'tibor berish.</p> <p>Gavdani tik tutgan holda qo'llarni bir tekkisda harakatlantirish.</p> <p>Tizzalar bukilmagan va ko'proq engashish kerak.</p> <p>Oyoqlar tizzadan bukmasdan to'g'ri egilishga e'tibor berish.</p> <p>Gavdani tik tutib, qo'llarni orqa va yuqoriga ko'proq uzaytirish.</p> <p>Oyoqlar tizzadan bukilmaydi va qo'llarni to'liq tekkazish.</p> <p>Qo'llarni oldinga cho'zib, o'tirib turish mashqini to'g'ri bajarish.</p> <p>Oyoqlarni to'g'ri aylantirilishiga e'tibor qaratish.</p> <p>Bir tekkisda baland sakrashni e'tiborga olish.</p>
--	---	---	--

<p>Asosiy qism 26-28 daqiqa</p>	<p>To'pni o'ng va chap qo'l bilan nishonga otish. To'p bilan harakatlanib kelib, sakrab yuqoridan darvozaga otish. Darvozabonning turish holatlari. Ikki tomonlama o'yin.</p>	<p>4-6 daqiqa 4-6 daqiqa 4-6 daqiqa 8-10 daqiqa</p>	<p>Darvozaning belgilangan turli taraflariga uloqtirish. Sakrashga etibor qaratish. O'yin qoidasiga rioya etish.</p>
<p>Yakuniy qism 3-5 daqiqa</p>	<p>Yengil yugurish. Qayta saflanish. Nafas rostlovchi mashqlar bajarish. O'quvchilarni baholash. Uyga vazifa berish. Darsni yakunlash.</p>	<p>2-3 daqiqa 2-3 daqiqa</p>	<p>200 metrga yengil yugurish. O'quvchilarni dastlabki holatga qaytarish.</p>

Shaxmat mashg'ulotlarini tashkil etish

Shaxmat – qiziqarli va maroqli o'yin. Shaxmat bilan shug'ullanish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga, fikrlash doirasining o'sishiga, kelajak avlod ruhiyatining rivojiga ijobiy ta'sir etadi.

Shaxmat to'garagi - o'quvchilarni muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishlariga jalb etadi, ularni “Alpomish” va “Barchinoy” test me'yorlarini topshirishga, sport malaka toifasini bajarishga tayyorlaydi, organizmni chiniqtirishga, jismonan to'g'ri rivojlanishga ko'maklashadi.

Yosh avlodni Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilish, intizomli, botir, irodali bo'lish ruhida tarbiyalaydi.

Shaxmat, shohmot (fors. shohmot - shoh o'ldi) - sport turi. O'yindan maqsad raqib shohini mot qilish. Ikki xil (oq va qora) rangdagi 64 ta teng katakli taxta (sath)da ikki xil rangdagi 16 tadan dona (bittadan shoh va farzin, 2 tadan rux, fil va ot, 8 tadan piyoda)da o'ynaladi. Shaxmatda musobaqa paytida ma'lum sondagi yurishlar qilinishi uchun vaqt (dastlabki 40 ta yurish uchun 2,5, 2 va 1,5 soat va h.k.) va o'yin tugamasa qo'shimcha vaqt belgilanadi. Tezkor shaxmatda o'yinni tugatish uchun aniq vaqt (30, 25, 15 va 5 daqiqadan) beriladi. Sirtqida har bir yurishni amalga oshirish uchun masofa va aloqa vositasi turiga qarab, kun yoki haftalar belgilanishi mumkin.

Shaxmatning kelib chiqishi chaturanga o'yiniga borib taqaladi. Arab xalifaligi davrida bu o'yin “shatranj” nomi bilan ommaviylashdi. Arablar shaxmat yozuvini joriy etgani uchun shaxmat o'yinlari matniga oid qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Abulfath Ahmad ibn Sijziy “Shatranj kitobi”da 819 yilda Xurosonda o'tkazilgan birinchi shaxmat musobaqasi va unda g'olib chiqqan o'rtaosiyolik mashhur shatranjchi Abu Bakr as-Suliy haqida yozgan. As-Suliy ko'plab shaxmat voqealariga qahramon bo'lib kirgan Abulfaroj Laylojga ustozlik qilgan.

Shaxmat 11-asrdan boshlab Yevropada jadal rivojlandi. 15-asrda shaxmat qoidalariga o'zgarishlar kiritildi. 1512 yilda Rimda Damianoning "Bu kitob shaxmat o'ynashni o'rgatadi" to'plami bosildi va u Yevropa tillariga tarjima qilindi. 1575 yilda Madridda Ispaniya va Italiya shaxmatchilari o'rtasida uchrashuv o'tkazildi. 17-asrda Joakkino Greko (Italiya), 18-asrda Danikan (Fransua Andre), Filidor (Fransiya), 19-asrda Govard Staunton (Angliya), Adolf Andersen, Iogannes Sukertort (Germaniya), Pol Morfi, Lui Paulsen (AQSh), Ignas Kolish, Vilgelm Steynis (Avstriya-Vengriya), Aleksandr Petrov, Mixail Chigorin (Rossiya) kabi shaxmat ustalari bu o'yinning rivojiga katta hissa qo'shishdi. 1851 yilda Londonda 1-xalqaro musobaqa uyushtirildi. Unda Andersen g'alaba qozondi. 1886 yildan shaxsiy jahon chempionati o'tkazilishi shahrini yanada ommalashtirdi. 1924 yilda Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tuzildi. 1987 yilda tuzilgan Grossmeysterlar assotsiatsiyasi (keyin Jahon shaxmat kengashi, deb nomlandi) mustaqil ravishda shaxmat bo'yicha bir qancha musobaqa, jahon kubogi va chempionati tashkil etdi. 2000 yilda Vladimir Kramnik va Garri Kasparov o'rtasida o'tkazilgan musobaqada Kramnik g'alaba qozondi va jahon chempioni, deb e'lon qilindi. FIDE shahridagi bo'linishga barham berish maqsadida mutlaq jahon chempionini aniqlash uchun birlashtiruvchi musobaqa belgiladi.

O'zbekiston zaminida shaxmat chuqur ildiz otganini tasdiqlovchi manbalar mavjud. 1972 yilda Dalvarzintepa (Surxondaryo)da olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida Kushon davri (1-2-asrlar)ga oid shaxmat donalari, 1977 yilda Afrosiyob (Samarqand)da o'tkazilgan tadqiqotlar chog'ida 7-8-asrlarga taalluqli 7 ta shaxmat donasi topilgan. 9-asrda yashagan arab olimi va shatranjchisi al Adliyning yozishicha, shatranjdagi inson tafakkurini cheklagan shashxoldagi xollarning tushishiga qarab yurish (shashxol)ning bekor qilinishi va bu o'yinning rivojlanishida O'rta Osiyo xalqlari muhim rol o'ynagan. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn", Alisher Navoiyning "Majolis un nafois", "Lison uttayr", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqalar tarixiy asarlarda shaxmat (shatranj)ga oid qimmatli ma'lumotlar bor. Amir Temur davrida quchli shatranjchilar Samarqandda to'planishgan. Tabrizlik Ali ash Shatranjiy (Oloviddin at-Tabriziy) Samarqandda o'tkazilgan musobaqalarda g'olib chiqqan. Shatranj haqida kitob yozib, unga o'zining va 14-asrgacha O'rta Osiyoda yashagan ko'plab oliya (grossmeyster)larning mansubalarini kiritgan. U sohibqironning o'zi bilan ham shatranj o'ynab turgan.



20-asrning 20-yillaridan O'zbekistonda shahmatning zamonaviy qoidalari keng targ'ib etilishi bu sport turining rivojlanishiga turtki berdi. Toshkent, Samarqand, Ko'qon va boshqa shaharlarda shaxmat to'garaklari ochildi. Azmiddin Xo'jaev, Sergey Freyman, Po'lat Saidxonov, Zokir Xo'jaev kabilar shahmatni targ'ib etishda jonkuyarlik ko'rsatishdi. 1930 yildan erkaklar, 1935 yildan ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionatlari o'tkazila boshlagan (Aleksandr Grushevskiy va Larisa Pinchuk eng ko'p - 8 martadan chempion bo'lishgan). Turli davrlarda Fyodor Duz-Xotimirskiy, Salo Flor, Tigran Petrosyan, Paul Keres, Aleksandr Kotov, Mark Taymanov, Viktor Korchnoy, Anatoliy Karpov kabi taniqli grossmeysterlarning O'zbekistonga kelib, ma'ruzalar o'qishi, bir yo'la o'yin (seans)lar o'tkazishi, musobaqalarda qatnashishi mamlakatimiz shaxmati rivojiga samarali ta'sir etdi. 20-asrning 50-yillaridan boshlab Mamajon Muhitdinov, Ulug'bek Elbekov, Sergey Pinchuk, Roman Kim, Alla Mkrtyuchan kabi shaxmat jonkuyarlarining yangi avlodi voyaga yetdi. Respublika shaxmat klubi foydalanishga topshirildi, turli toifadagi musobaqalar o'tkazila boshlandi, gazeta va jurnallarda shaxmat ruknlari, O'zbekiston televideniesida shaxmat ko'rsatuvi ochildi, shahmatga oid kitoblarni nashr etish yo'lga qo'yildi. Isaak Birbrager, Yefim Ruxlis kabi shaxmat kompozitorlari turli tanlovlarda g'olib chiqishdi. Georgiy Borisenkoga sirtqi shaxmat bo'yicha xalqaro grossmeyster unvoni berildi. Georgiy A'zamov esa O'zbekistondan yetishib chiqqan 1-xalqaro grossmeyster bo'ldi (1984).

20-asrning 90-yillaridan O'zbekiston shaxmatida yuksalish boshlandi. Erkaklar terma jamoasi jahon shaxmat olimpiadasida 2-o'rinni egalladi (1992), Osiyo chempionatida g'alaba qozondi (1999). Ibrohim Hamroqulov o'smirlar o'rtasida jahon birinchiligida g'olib chiqdi (1998). Rustam Qosimjonov Osiyoning birinchi (1998), jahonning 17-chempioni (2004) bo'ldi.

FIDE tasnifi bo'yicha jahon chempionlari V. Steynis, Ye. Lasker, X.R. Kapablanka, A. Alyoxin, M. Eyve, M. Botvinnik, V. Smislov, M. Tal, T. Petrosyan, B. Spasskiy, R. Fisher, A. Karpov, G. Kasparov, A. Xalifman, V. Anand, R. Ponomaryov, R. Qosimjonov nufuzli musobaqalarda yuqori natijalar ko'rsatgani uchun FIDE quyidagi shaxmatchilarimizga xalqaro grossmeyster unvonini berdi: Valeriy Loginov, Aleksandr Nenashev, Grigoriy Serper, Sergey Zagrebelniy, Saydali Yo'ldoshev, Aleksey Barsov, Mixail Saltaev, Rustam Qosimjonov, Rena Mamedova, Shuhrat Safin, Marat Jumaev, Dmitriy Qayumov, Timur Gareev. Bir necha shaxmatchi va murabbiylar O'zbekiston Respublikasining faxriy unvoni va orden-medallari bilan mukofotlanishdi.

Mamlakatda bolalar va yoshlar o'rtasida ham shaxmatni rivojlantirishga katta e'tibor berilyapti. Shaxmat "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalari dasturiga kiritilgan. O'zbekistonlik yosh shaxmatchilar bolalar-o'smirlar o'rtasida o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalarda sovrinli o'rinlarni egallab kelishyapti.

Hozirgi vaqtda Toshkent va viloyatlardagi shahriga ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar sport maktablari, shaxmat klublari va to'garaklarida 268 murabbiy faoliyat ko'rsatyapti.

Mamlakatimizda 7984 kishi (2320 nafari xotin-qizlar) shaxmat bilan bevosita shug'ullanishadi, ulardan 3220 nafari shaxmat razryad va unvonlariga ega (2003).

Men shaxmatni faqatgina sport yoki ilm, yo san'at deb emas, balki juda katta tarbiyachi deb hisoblayman. Shaxmat, birinchi navbatda, insondagi kurashchanlik va g'alabaga ishonch ruhini tarbiyalaydi. Undan keyin bu aql gimnastikasi xatoni kechirmaydi. Bir joyda yanglishsang, mana g'alabaga yetdim deb turganingda ham ozgina beparvolik mag'lubiyatga olib keladi. Shuning uchun shaxmat judayam adolatli o'yin. Aniqrog'i, adolatning o'zi.

Mutaxassislarning ayrimlari uning sport tomonini, birovlari san'at tomonini, boshqalari ilm tomonini bo'rttiradi. Shaxmatda bularning bari mujassam. Fikrlarni umumlashtirib men shaxmatni inson tafakkuri yaratgan mo'jiza, deb bilaman. Birinchi navbatda, Sharq donishmandligi yaratgan mo'jiza bu.

Shaxmat menga ko'p narsa bergan. Avvalo ijodiy ishda. Kattaroq bir narsa yozganda, tarjima qilganda miya xuddi toqqa chiqqan mashinaning motoriday qizib ketadi. Shunda na dam olib bo'ladi, na ko'zga bir uyqu keladi. Miya beixtiyor o'zi ishlayveradi. Ana shunaqa vaqtda boshni chalg'itish kerak. Shunda menga shaxmat yordam berardi. Biror pozitsiyani, masalan, shaxmat masalasi yoki etyudni olib shunga berilsam, miyam dam oladi. Ijodkor hayotida muvaffaqiyatli paytlari bo'ladi, chetga surilib qolgan vaqtlari ham. Shunda shaxmat – tengsiz «daf'i xumor»dir. Shu sabab shaxmatdan minnatdorman. Shaxmatni yaxshi ko'rgan o'rtoqlarim davrasiga kirganimda butun dardu g'amimni unutardim. Shaxmat shunday narsaki, unda g'alabaga ishonch, qat'iy maqsad bo'lishi kerak. Shaxmat o'ynagan odam bilan shaxmat o'ynamagan odamning farqini ajratish qiyin emas. Shaxmat o'ynagan odam bir narsani gapirishdan oldin o'ylab, mulohaza qilib keyin gapiradi. Shaxmat o'ynamagan odam ba'zan oqibatini o'ylamay gapirib yuboradi. Shaxmat insonni mana shu jihatdan ham tarbiyalaydi.

Haqiqatan ham, she'r va shaxmat bir-biriga uyqash. Hazrat Navoiy dahosini o'ylaganimda gohida aqlim bovar qilmaydi. Inson bolasi yozishi mumkinmi shunday baytlarni! O'ylaymanki, bu ulug' zot o'ynagan shatranj yurishlari ham go'zal bo'lgan. Bu endi alohida ilhom talab qiladi. Shaxmatda ham ilhom bor, xuddi she'rda bo'lganidek.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998 y.
3. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 140-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 167-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida» 187-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.
7. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009 y.
8. R.J.Ishmuhamedov.«Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari».T.,Nizomiy nomidagi TPRU,2004-yil.
9. J.G. Yo'ldoshev, G.A. Usmonov.«Pedagogik texnologiya asoslari».
10. T., «O'qituvchi»,2004-yil.
11. U.K.Tolipov,M.Usmonboyeva.«Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari».T.,«Fan»2006-yil.
12. M.Sharipova.«Musiqqa va uni o'qitish metodikasi».O'quv qo'llanmasi.
13. T.,«Turon-Iqbol», 2006-yil.
14. D.A.Karimova. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari».
15. G.M.Sharipova. «Musiqqa va uni o'qitish metodikasi».
16. D.A. Karimova. «Yangi pedagogik texnologiyalar».
17. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun. T.,1997-yil.
18. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T.,1997-yil.
19. Y.M.Karimova, F.A.Akramova. «Psixologiya». Ma'ruzalar matni.
20. T., TFDK. DITAF, 2000-yil.
21. O.Mavlyanova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. «Pedagogika».
22. T., «O'qituvchi», 2001-uy.
23. J.Fozilov, R.Sultonov, X.Saidov. «O'qituvchi ma'naviyatini shakllantirish».
24. T., «Sharq», 2000-yil.
25. D.Omonullayeva. «Alifbo qo'shiqlari». «Sharq», 2000-yil.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
“Musiqqa madaniyati” fanini oʻqitishga doir umumiy tavsiyalar	6
Musiqqa madaniyati darslarida axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash samaradorligi	7
Musiqqa madaniyati fanidan amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish (sinflar kesimida dars ishlanmalardan namunalar)	14
Tasviriy sanʼat fanidan amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish (sinflar kesimida dars ishlanmalardan namunalar)	29
Jismoniy tarbiya fanidan amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish (sinflar kesimida dars ishlanmalardan namunalar)	64
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	92